



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

No. 3

**BUXORO – 2024
«DURDONA» NASHRIYOTI**

ILMIY – METODIK JURNAL
TAHRIR HAY'ATI TARKIBI

Bosh muharrir:

Ma'murov Bahodir Baxshullayevich

Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, p.f.d. (DSc), professor

Tahrir hay'ati raisi:

Qahhorov Siddiq Qahhorovich

pedagogika fanlari doktori, professor.

Muqimov K.M.	– O'zRFA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Xamidov O.X.	– iqtisod fanlari doktori (DSc), professor
Murodov Sh.N.	– fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ikramov A.A.	– pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raximov Sh.A.	– fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Muxtorov E.M.	– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Niyozov A.K.	– texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Sharipov A.Z.	– falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Qahhorov O.S.	– iqtisod fanlari doktori (DSc), professor
Barotov Sh.R.	– psixologiya fanlari doktori, professor
Olimov Sh.Sh.	– pedagogika fanlari doktori, professor
Rasulov T.H.	– fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
O'rayeva D.S.	– filologiya fanlari doktori, professor
Amonov M.R.	– texnika fanlari doktori, professor
Bo'riyev S.B.	– biologiya fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B.	– pedagogika fanlari doktori, professor
Abdullayev M.J.	– pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jo'rayev A.R.	– pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Saidova M.J.	– pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Nazarov M.R.	– fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Izbullayeva G.V.	– pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent Tadjixodjayev Z.A. texnika fanlari doktori, professor
Tosheva D.A.	– filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
Byulent Bayram	– filologiya fanlari doktori, professor (Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro Turk-Qozoq universitet)
Timur Kojaog'lu	– filologiya fanlari doktori, professor (AQSH Michigan davlat universiteti)
Irina Pokrovskaya	– filologiya fanlari doktori, professor (Taras Shevchenko nomidagi Kiyev milliy universiteti)
Murat Elmali	– filologiya fanlari doktori, professor (Istanbul universiteti)
Mehmet Y.Y.	– filologiya fanlari doktori, professor (Istanbul universiteti)
Starikov Marcelo	– pedagogika fanlari doktori, professor (New York)

Muassis: Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: Buxoro shahar Piridastgir ko'chasi 2-uy.

Telefon: (+998 65) 226-10-97

Faks: (+998 65) 226-66-75

Elektron manzil: buxdpi@buxdpi.uz.

ISSN – 2181-4201

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYAVA METODIKA

VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK OMILLARI

Kurbonova Dिल्фуза Samiyevna, Buxoro Psixologiya va Xorijiy tillar instituti talabasi
Kurbanovadilya80@gmail.com

Annotatsiya: Ma'lumki, insonning ma'naviy olami va xulq-atvoriga u yashayotgan muhit va shart-sharoitlari doimiy ravishda ta'sir etib turadi. Uning ayrimlari kishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatsa, ayrimlari bilvosita tarzda ta'sir qiladi. Biz ushbu bolalar va o'smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

Kalit so'zlar: makro va mikromuhit, katanamnistik tahlil metodi. bosqinchilik, zo'ravonlik, moddiy-tovar boyliklar, tovlamachilik, firibgarlik.

Abstract: It is known that the spiritual world and human behavior are constantly influenced by the environment and conditions in which he lives. Some of them affect a person directly, and some indirectly. Our goal was to analyze the socio-psychological factors influencing the occurrence of criminal behavior in these children and adolescents.

Key words: macro-and microenvironment, method of catanamic analysis. invasion, violence, material wealth, extortion, fraud.

Аннотация: Известно, что духовный мир и поведение человека постоянно влияют окружающая среда и условия, в которых он живет. Некоторые из них влияют на человека напрямую, а некоторые косвенно. Нашей целью было проанализировать социально-психологические факторы, влияющие на возникновение преступного поведения у этих детей и подростков.

Ключевые слова: макро- и микросреда, метод катанамистического анализа. вторжение, насилие, материальные блага, вымогательство, мошенничество.

Jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik omillari deganda, eng avvalo makro va mikromuhit deb nomlangan ikki katta tushunchalarga izoh berib o'tish lozim bo'ladi. Jinoyatchilikning psixologik omillari esa jinoyatchi shaxsining individual-psixologik va yosh davri xususiyatlari jamlanmasi ma'nosida talqin qilinadi.

Makromuhit, ya'ni katta ijtimoiy qatlamdagi munosabatlar, xususan jamiyatning iqtisodiy munosabatlari, siyosiy xokimiyatning tashkil etilishi, jamiyatdagi siyosiy vaziyat, ijtimoiy ongning shakllari hamda kishilarning katta guruhlar hisoblangan millat, siyosiy partiyalar, harakatlar, ijtimoiy va professional guruhlar va boshqalar asosida tashkil topadi. Mikromuhit esa shaxsga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi, ya'ni insonni qurshab olgan muhitni, uning oilaviy muhitini, mehnat faoliyati, shart-sharoitlari, xizmat ko'rsatishi va dam

olishini hamda u faoliyat ko'rsatayotgan mehnat jamoasi va turli xil ehtiyojlarni qondirish yo'lidagi muomala munosabatlarni qamrab oladi.

Makromuhitning jinoyatchilik xulqining lib chiqishiga ta'siri to'g'risida gapirilganda avvalo jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit, kishining turmush tarzi, ijtimoiy mavqei, jamiyatda tutgan o'rni to'g'risida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi.

Jamiyatning iqtisodiy inqirozi kishilarning turmush tarziga, hayot kechirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu kishilarni jamiyatda o'z o'rni, hayotini saqlab qolish uchun turli xil g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni bajarishga undaydi. Oqibatda bunday jamiyatda qonunning ustuvorligi yo'qoladi, turli xil qonunbuzarliklar, jumladan o'g'irlik, bosqinchilik, zo'ravonlik kabi jinoyatlar avjiga chiqadi. Mamlakatda siyosiy beqarorlikning hukm surishi, muayyan mafkura va g'oyaning yo'qligi ham turli xil qonunbuzarlikning kelib chiqishiga imkoniyat yaratadi.

Biz quyida bolalar va o'smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatuvchi ana shunday ijtimoiy- psixologik omillar xususida fikr yuritib o'tmoqchimiz.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganish maqsadida tadqiqotimizda bolalar va o'smirlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning statistik ma'lumotlari katanamnistik tahlil metodi orqali o'rganildi hamda sodir etilgan jinoiy harakatlarning ijtimoiy - psixologik omillari tahlil qilindi.

Tadqiqotimizda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganishda hamda ular tomonidan sodir etilgan jinoiy xatti-harakat va jinoyatchi shaxsi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Chunki, jinoiy harakat va jinoyatchi shaxsi o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish jinoyatchilikning ijtimoiy-psixologik omillarini izohlashda muhim hisoblanadi. Bunda biz quyidagi prinsiplarga ko'ra tadqiqot ishlarini olib bordik. Birinchidan, jinoiy harakatning kelib chiqishidan tortib, uning amalga oshirilishi, maqsad va oqibatlari kompleks tarzda o'rganildi. Ikkinchidan esa, jinoyatchi shaxsi va uning psixologik, yosh xususiyatlari tahlil qilindi. Natijada jinoiy harakat va voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsi xususiyatlari hamda ular o'rtasidagi bog'liq jihatlar haqida muayyan ma'lumotlar olishga erishildi. Ushbu tamoyilga ko'ra, biz dastlab voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga xarakteristika berishga harakat qilamiz.

Tadqiqotimiz natijalari va statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi kattalar jinoyatchiligidan ijtimoiy xavflilik jihatidan kam xavfliligi bilan ajralib turadi. Ular tomonidan sodir etilgan jinoiy harakatning asosiy qismi, ya'ni 36,20 % o'g'irlik va bezorilik jinoyatlarini tashkil qiladi. Shuningdek, ular tomonidan ba'zan bosqinchilik, zo'ravonlik jinoyatlari (21,12%) ya'ni kishilarning sumkalarini qo'lidan tortib olib qochish, bosh kiyimini olib qochish, qo'rqitib pulini olib qo'yish kabi jinoyatlar ham sodir etilayotganligi kuzatildi. Juda kam darajadagi jinoyatlar davlat va mulkdorlar mulkini o'g'irlash bilan bog'liqdir. Bunda bolalar va o'smirlarning asosan moddiy-tovar boyliklarni, ya'ni shirinliklar, mevalar, tamaki va spirtli mahsulotlar, radio va teleapparaturalar, soat va

fotoapparatlar, texnik asbob-anjomlar va boshqalarni o'g'irlaganliklari kuzatiladi. Ushbulardan kelib chiqib aytish mumkinki, bolalar va o'smirlarning jinoiy harakatlarida ularning yosh xususiyatlari aks etishligi tufayli, texnik asbob-ukunalarga nisbatan qiziqishlarning ustunligi, jinoiy harakatlari mazmunida aynan shu predmetlarga bog'liq bo'lgan jinoiy harakatlar sodir etilgan.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan o'g'irlik jinoyatining tahlili shuni ko'rsatadiki, sodir etilgan o'g'irlikning uchdan bir qismi unchalik katta bo'lmagan pul o'g'irliklariga to'g'ri keladi. Bolalar va o'smirlar tomonidan sodir etilgan o'g'irlikning kattalar o'g'irliklaridan farqli tomoni shundaki, ularning o'g'irliklari har doim ham g'arazli maqsadlarga bo'ysungan bo'lmaydi hamda ularning jinoiy harakatlari mazmunida u yoki bu ko'rinishdagi arziyas ehtiyojlarni qondirish yotadi.

Bolalar va o'smirlar tomonidan sodir etilgan jinoiy harakatlar orasida ikkinchi ko'rsatgichni (21,12 %) bezorilik jinoyati tashkil qiladi. Bezorilik jinoyati ko'rsatkichi bir qator tadqiqotchilarning (N.P.Grabovskaya (1969), A.A. Gersenzonlarning (1970) ta'kidlashlaricha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi umumiy ko'rsatgichining taxminan 15-30 % ini tashkil qiladi. Bizning tadqiqotimizda esa bu ko'rsatgich voyaga yetmaganlar umumiy jinoyatchiligining 24,30 foiziga teng bo'ldi.

Bezorilik jinoyati bolalar va o'smirlar tomonidan urush-janjallik, bolalarni kaltaklash, tan jarohati yetkazish, mushtlashish va boshqa ko'rinishlarda amalga oshirilganligining guvohi bo'lamiz. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan bezorilik harakatlari kattalarning bezoriliklaridan ko'chalarda, parklarda, o'yingohlarda, kinoteatrlarda amalga oshirilganligi bilan farqlanadi. Kattalar tomonidan sodir etilgan bezoriliklar esa asosan xonadonlarda, hovlilarda amalga oshirilishi kuzatiladi.

Kuzatishlarimizga qaraganda, voyaga yetmaganlarning bezoriliklari ko'pincha o'zini ko'rsatish va ermak, ovo'nchoq sifatida, tengdoshlarini kuldirish, qiliqlar ko'rsatish ma'nosida sodir etiladi. O'smirning bu xildagi xatti-harakatlari ba'zan jamiyatga, kishilarga jiddiy putur yetkazishi va jinoiy harakatga aylanishi mumkin.

Shaxsga tajovuz qilish jinoyatchiligi orasida voyaga yetmaganlarning nomusga tegish jinoiy harakatlarini alohida ko'rsatib o'tish lozim. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, o'smirlar tomonidan bunday jinoiy harakatlar mastlik holatida, guruhliy ko'rinishda amalga oshiriladi. Bunday jinoyatlarning o'ziga xos jihatlaridan biri hech qachon o'ziga yaxshi tanish bo'lgan xotin-qizlarda amalga oshirmasligidir. Ya'ni, bunday jinoyatlar asosan notanish, davraga yangi taklif etilgan yoki ko'cha-ko'yda uchratib qolgan xotin - qizlarda sodir etiladi.

Voyaga yetmaganlarning bunday jinoiy harakatlarini tahlil qilganimizda, ular nafaqat jinsiy ehtiyojni qondirish, balki jinsiy tarbiya borasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar tufayli sodir etilayotganligining guvohi bo'lamiz. Bunday bolalar va o'smirlar oilada jinsiy tarbiya borasida yetarlicha tarbiya ko'rmaganliklari bilan ajralib turadilar. Ayrim o'smirlar o'zining bunday harakatlarini «erkak sifatida yetilganliklari» ni ko'rsatish, namoyish etish

ma'nosida ham sodir etayotganliklari kuzatiladi.

Bolalar va o'smirlar tomonidan garchand kam darajada bo'lsada tovlamachilik, firibgarlik jinoyatlari ham sodir etilgandir (7,0%). Bunday jinoiy harakatlar ko'pincha noto'liq oilalarda yoki ota-onasiz tarbiyalangan bolalar va o'smirlar tomonidan amalga oshirilganligi kuzatildi. Shuningdek, bunday jinoyatlar kattalarning ishtirokida ularning ta'siri, yo'l-yo'riqlari asosida sodir etilayotganligining ham guvohi bo'lamiz. Bolalar va o'smirlar o'rtasida qanday jinoyat turlarining keng tarqalayotganligidan qat'iy nazar ularda yosh davri xususiyatlarining ta'siri, o'rni mavjudligini ko'ramiz.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi kattalar jinoyatchiligi bilan taqqoslanganda ularning tor doira va mazmunga ega ekanligi, ya'ni jinoiy harakat mazmuni moddiy - tovar boyliklariga yo'naltirilganligi hamda turli xil mayda bezoriliklar bilan chegaralanayotganligi kuzatiladi. Shuningdek, bunday voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi xiyla-nayranglardan, mug'ombirlik va ayyorliklaridan holi ekanligi hamda oddiy, sodda usullar orqali amalga oshirilyotganligi bilan ham xarakterlidir. Jinoiy harakatni amalga oshirish usullarining sodda va oddiyligi bunday jinoyatlar bevosita voyaga yetmagan jinoyatchi tomonidan amalga oshirilganligidan dalolat beradi.

Jinoiy xatti-harakat va jinoyatchi shaxsining bir-biriga bog'liq holda o'rganilishi va tushunilishi tabiiy hol albatta. Chunki, bunday yondashuvsiz jinoiy harakatni tahlil qilish, uning sodir etilish mexanizmini o'rganish mumkin bo'lmas edi.

Jinoyatchilik xulqi insonning boshqa xulq-atvori singari ikki xil belgining namoyon bo'lishi orqali ifodalanadi. Ya'ni, sub'ektiv motivlar, maqsad va yo'nalishlar, e'tiqod va g'oya hamda sub'ektiv jismoniy sayi-harakatlar natijasida jinoiy harakat sodir etiladi. Jinoiy harakatlarning ijtimoiy xavfli tus olishi jinoiy harakatning eng avvalo shaxs ichki psixologik qayta ishlov pog'onasidan o'tganligiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun jinoyatni sodir etishda o'smir o'y-fikr qiladi, amalga oshirish usullarini ishlab chiqadi. Shaxsning jinoyatni amalga oshirishi kerakligini hal etishi psixologik mazmunga ko'ra, niyat va istak orqali bajariladi. Jinoiy harakatni qasddan, oldindan o'ylangan niyat asosida sodir etilishi shaxsni o'z jinoiy harakati xarakteri va oqibatlarini anglab yetganlik holatiga olib keladi. Natijada oldindan o'ylangan niyat, ma'lum g'arazli maqsadlar asosida jinoyat sodir etiladi. Bolalar va o'smirlar jinoyatchiligida esa ko'pincha aynan oldindan o'ylangan niyatlar, g'arazli maqsadlar to'la qonli aks etmaydi. Aksincha, ular o'z jinoiy harakatlarining mazmun va oqibatlarini to'laqonli anglab yetmasdan, to'satdan, dab-durustdan yuzaga kelgan vaziyatlar tufayli jinoyatni sodir etadilar. Aytish mumkinki, aynan ushbu xususiyatlar bolalar va o'smirlar jinoyatchiligining kattalar jinoyatchiligidan farqlanuvchi eng asosiy belgilaridandir. Bu xususiyat yuqorida ta'kidlaganimizdek, voyaga yetmaganlar jinoyatchilining ijtimoiy xavflilik darajasining pasayishiga olib keladi. Ammo voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining barchasini ham ijtimoiy jihatdan xavfli emas deb bo'lmaydi. Jinoyatchilik ko'chasiga to'la kirib ketgan, jinoyatchilik xulqi patologik tus olgan voyaga yetmaganlarning jinoiy harakatlari hamda kattalar bilan hamkorlikda sodir etiladigan jinoiy

harakatlar ijtimoiy xavfli hisoblanadi. Ba'zan esa voyaga yetmagan shaxs o'z jinoiy xatti-harakatlarining oqibatini anglab yetmagan holda ijtimoiy xavfli, ya'ni birovning sog'ligiga va hayotiga jiddiy zarar yetkazishi, bilmagan va anglab yetmagan holda turli xil guruhlariga, jumladan diniy oqimlarga ham kirib qolishi mumkin.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, ko'pincha voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi yashash joyi va yaqin atrofdagi mahallalarda sodir etiladi. Shuning uchun voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ular yashayotgan joyning kriminologik muhitiga ham bog'liq bo'ladi. Ya'ni, voyaga yetmagan o'smir yashayotgan joyda ilgari sudlangan katta yoshli kishilar yoki hulq og'ushiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlarning yashashligi, bolalar va o'smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi uchun qulay muhit yaratadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining deyarli teng yarmi tungi soat 22-23 lardan keyin sodir etilayotganligi kuzatiladi. Bu aynan shu vaqt oralig'ida bolalar va o'smirlarning otalari va kattalar nazoratidan, e'tiboridan chetda qolishligi holatiga bog'liqdir.

Voyaga yetmaganlar jinoiy harakatlarining psixologik tahlilidan ma'lum bo'lishicha, ulardagi jinoyatchilik xulqi nafaqat tashqi omillar, vaziyatlar ta'siri tufayli balki, o'smirning ichki psixologik xususiyatlariga, holatiga, dunyoqarashiga, yo'nalishi va e'tiqodiga bog'liq bo'ladi. Shu boisdan o'z davrida tadqiqotchi V.N.Kudryavsev shunday deb ta'kidlagan edi: "Jinoyatchilik xulqi makon va zamonda shakllanadi, u o'z mazmuniga nafaqat tashqi muhit ta'sirlarini, balki shaxsning ichki psixologik jarayoni xarakterini ham qamrab oladi".

Bugungi kunda voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilik hodisasi jamiyat va davlat oldida turgan dolzarb muammolardan biri ekanligi uni oldini olish ishlari davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi hamda hukumat miqyosida e'tibor qaratilayotganligi bilan izohlanadi.

Buning asosiy sababi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi bevosita shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri ekanligi bilan izohlanadi. Darhaqiqat, yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek: "qanchalik qayg'uli tuyulmasinki, jinoyatchilik hamma mamlakatlarda va hamma davrlarda bo'lgan. Biroq o'tish davrida uning mazmuni faqat jinoiy qilmish doirasi bilangina cheklanib qolmaydi"³.

Bizga ma'lumki, Sobiq Ittifoq davrida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish va unga qarshi kurashishga yetarli darajada e'tibor bo'lsa ham ammo jinoyat qonunidagi bunday jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan normalar shu vaqtgacha biror marta ham tizimlashtirilgan holda, hozirgi jinoyat kodeksimizdek alohida bir bo'limda berilmagan edi. Unga ko'rsatilgan normalar jinoiy javobgarlikni umumiy qoidalarini o'z ichiga olish bilan birga, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilganda ularga nisbatan jazo turlarining ancha takomillashganligi, sud ularga jazo tayinlashda o'smirning ruhiy rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasini, sog'lig'ini, sodir etgan jinoyatining sabablarini, katta yoshdagi kishilar va vaziyatning jinoyat sodir etilishdagi o'rnini e'tiborga olib, javobgarlik yoki jazodan ozod qilishda unga nisbatan davlatimiz tomonidan beriladigan bir qancha yengilliklarda ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish muammosini hal etish maqsadida kelajak avlodni tarbiyalashga mas'ul bo'lgan davlat va nodavlat idoralar faoliyati hukumat tomonidan muvofiqlashtirilgan holda tashkil etilgan. Ushbu holat mamlakatimizda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish ishlari kompleks tarzda tashkil etilganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mamlakatimizdayildan-yilga yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ular o'rtasida turli xil salbiy ko'rinishlarni oldini olish ishlari mukammalashib borayotganligini ko'rish mumkin. Ya'ni, 2008-yilning "Yoshlar- yili" deb e'lon qilinishi hamda shu-yilning 7-yanvarida "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni hamda 2010-yil 29-sentyabrdagi *"Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasi to'g'risida"*gi O'RQ-262-sonli qonuni qabul qilinishi soxada olib borilayotgan ishlarni yanada yaxshilashga xissa qushadi.

Shu o'rinda, jinoyatchilik va voyaga yetmaganlar tushunchalariga, ularning o'zaro bog'liqligi kabi masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Yuridik adabiyotlarda qayd etilishicha, jinoyatchilik - kishilik jamiyatida mavjud bo'ladigan o'zining qonuniyatlariga, sifat va miqdor tavsifiga ega bo'lgan, jamiyat va kishilar uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqaradigan va uning ustidan davlat va jamiyatning maxsus nazorat choralari o'rnatishni talab qiladigan salbiy ijtimoiy, huquqiy hodisadir⁴.

Yuridik fanlar doktori Q.Abdurasulova jinoyatchilik bo'yicha quyidagi ta'riflarni keltirgan⁵:

- jinoyatchilik g'oyat murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa bo'lib, muayyan vaqt mobaynida sodir etilgan barcha turdagi jinoyatlarning yig'indisidan iborat;

- jinoyatchilik ma'lum bir davlatda (mintaqada) muayyan bir davr mobaynida sodir etilgan barcha jinoyatlarning yig'indisi, tarixan o'zgaruvchan ijtimoiy va jinoyat huquqiy hodisadir;

- jinoyatchilik-ijtimoiy hodisadir. Chunki uning subyektlari bo'lgan shaxslar-jamiyatning a'zolari hisoblanadi. Jinoyatchilikni ijtimoiy hodisa ekanligi uning asosida ijtimoiy-iqtisodiy qonunlar yotishiga, ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqaruvchi kuchlarning xususiyatiga asoslanishida namoyon bo'ladi. Jinoyatchilikni ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan sabab va shart-sharoitlar vujudga keltiradi;

- jinoyatchilik bir qancha jinoyatlarning statistik yig'indisi bo'lmay, balki ijtimoiy-huquqiy hodisa hisoblanadi.

Shuningdek, jinoyatchilik jinoyatlarning yaxlit yig'indisi, tizimidir. U ma'lum tizimga oid xususiyatlar, ya'ni yaxlit jinoyatchilikka kiruvchi jinoyatlarning barqaror, o'zaro aloqadorligi va boshqa tashqi ijtimoiy hodisalar bilan bog'liqdir. Uning elementlari bo'lgan alohida turdagi jinoyatlar va ularning guruhlarini bir-biri bilan muayyan statistik o'lchamlarda o'zaro aloqador va o'zaro harakatda bo'ladi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan barcha turdagi jinoyatlar ham mazkur asosiy tizimning tarkibiga

kiradi. Avvalo voyaga yetmagan shaxs tushunchasi va asosiy mazmuniga to'xtalib o'tsak, **"Voyaga yetmagan"** tushunchasi bo'yicha, 1989-yil BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan *"Bolalar huquqlari to'g'risida"*gi Konvensiyada o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar voyaga yetmagan deb e'tirof etilgan⁶. Shu o'rinda voyaga yetmaganlarni ikki toifaga 13 yoshdan 16 yoshgacha va 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. M.D.Lisov, V.S.Volkov va B.V.Sidirov kabi olimlar olib borgan izlanishlarga ko'ra, voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir qilinayotgan jinoyatchilikning asosiy qismini 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlar, ozchilik qismini esa 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan yoshlar sodir qilishar ekan⁷.

O'zbekiston Respublikasida ham voyaga yetmaganlar deganda 18 yoshga to'lmagan shaxslar tushuniladi. Yuqorida qayd etilgan Konvensiya va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortishning minimal muddatini belgilaydi. Lekin qator davlatlarda bu yosh chegarasi belgilanganidan ham kam bo'lishi mumkin. Masalan, Irlandiya jinoyat qonunchiligida jinoiy javobgarlik 7 yosh, Yaponiyada 13 yosh, Niderlandiyada 12 yosh qilib belgilangan. 1994-yilda qabul qilingan amaldagi Jinoyat kodeksimiz Maxsus qismining 163 ta normasi voyaga yetmaganlar jinoyatchiliga bag'ishlangan.

Jinoyat kodeksi 17-modasi, 5-qismiga muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslar umumiy qoidalarga asosan va Jinoyat kodeksining oltinchi bo'limida (Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari 15-16 bob 81-90 moddalar) nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan xolda javobgarlikka tortilishi qayd etilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Jinoyat Kodeksi bo'yicha javobgarlikka tortish yoshiga etgan shaxsgina jinoyatning subyekti deb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunida birinchi marta jinoiy javobgarlikka tortishiga asos bo'lishi uchun yoshning to'rt darajasi belgilangan.

Jumladan, Jinoyat kodeksining 17-moddasi 1-qismiga ko'ra jinoyat qilgunga qadar 16 yoshga to'lgan shaxs javobgarlikka tortilishi qayd etilgan.

Jinoyat kodeksi 17-moddasi 2-qismiga ko'ra «13 yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirganlik (97- modda 2-qismi) uchungina javobgarlikka tortiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 97-moddasining 2-qismida belgilangan subyekt yoshi eng past yosh bo'lib, Jinoyat kodeksidagi yagona norma hisoblanadi.

Jinoyat kodeksi 17- moddasi 3-qismiga ko'ra jinoyat sodir etgunga qadar 14 yoshga to'lgan shaxslar quyidagi jinoyatlarni sodir etganlik uchun javobgarbo'ladilar: qasddan odam o'ldirish (97); qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (104-m); qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (105-m); kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish (106-m); nomusga tegish (118-m); jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiyy usulda qondirish (119-m); odam o'g'irlash

(137-m); bosqinchilik (164-m); tovlamachilik (165-m); talonchilik (166-m); o`g`rilik (169-m); mulkni qasddannobud qilish yoki unga zarar etkazish (173-m, 2-3q); ozodlikdan maxrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar (220-m); ozodlikdan maxrum qilish joylaridan qochish (222-m); o`qotarqurol, o`q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash (247-m); radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash (252-m); temir yo`l, dengiz, daryo, havo transporti vositasi yoki aloqa yo`llarini yaroqsiz holatga keltirish (263-m); transport vositasini olib qochish (267-m); giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash (271-m); og`irlashtiruvchi holatlarda bezorilik (277-m 2 va 3-q) jinoyatlari kiradi.

Jinoyat kodeksi 17-moddasi 4-qismida quyidagi jinoyatlar uchun javobgarlik yoshi 18 yosh deb belgilangan: voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta`minlashdan bo`yin tovlash (122-m); ota-onani moddiy ta`minlashdan bo`yin tovlash (123-m); voyaga yetmagan shaxsni g`ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish (127-m); fuqarolarning murojaatlari to`g`risidagi qonun hujjatlarini buzish (144-m); saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o`tkazish to`g`risidagi qonun hujjatlarini buzish (146-m); ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (193-m); atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to`g`risidagi ma`lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko`rsatish (194-m); atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartarafqilish choralarini kurmaslik (195-m); hokimiyat yoki mansab vakolatini suiste`mol qilish (205-m); hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (206-m); mansabga sovuqqonlik bilanq arash (207-m); hokimiyat harakatsizligi (208); mansab soxtakorligi (209-m); pora olish (210-m); harbiy yoki muqobil xizmatdan bo`yin tovlash (225-m); ma`muriy nazorat qoidalarini buzish (226); aybsiz kishini javobgarlikka tortish (230-m); adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish (231-m); sud qarorini bajarmaslik (232-m); qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki xibsga olish (234-m) ko`rsatuv berishga majbur qilish (235-m) hamda “harbiy xizmatni o`tash tartibiga qarshi jinoyatlar” bo`limida (279-302-m) qayd etilgan jinoyatlarni keltirish mumkin.

Mamlakatimizda jinoiy javobgarlik subyekt yoshiga yetmagan, lekin jinoyatsodir etishda aybdor deb topilgan voyaga yetmagan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Balki ichki ishlar idoralari voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olish nozirlari tomonidan tarbiyaviy (profilaktika) tadbirlar amalga oshiriladi.

Shuni alohida takidlash joizki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi keng qamrovli tushunchalardan biri hisoblanib, u salbiy ijtimoiy-huquqiy hodisadir. Jamiyat hayotida o`rin tutib kelayotgan ayrim muammolar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining dinamikasiga ta`sir o`tkazadi.

Ana shunday holatlarning oldini olish borasida mamlakatimizda birqancha chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov “Oilada, maktabda, mehnat jamoasida, mahallada olib borilgan axloqiy tarbiya jamoatchilik fikrining kuchi,

ommaviy axborot vositalari, diin vakillarining obro'-e'tibori hamma hammasi odamlarimizda qonun buzilishi bilan bog'liq har qanday xatti- harakatlarga nisbatan barqaror qarshilikni shakllantirishga qaratilmog'i lozim"⁹ ekanligini bildirgan.

Ta'kidlash joizki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi davlat xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini o'rganish shundan dalolat beradiki, ular asosan o'g'irlik, talonchilik, bosqinchilik, bezorilik kabi qilmishlarni sodir etadi¹⁰. Tadqiqotchi A.Fayzullaevning fikriga ko'ra, jinoyatchilikning ijtimoiy xavfsizlikka ta'sirini ko'rsatuvchi indikatorlar sifatida bosqinchilik (JK 164-modda), tovlamachilik (JK 165-modda), talonchilik (JK 166-modda), o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish (JK 167-modda), firibgarlik (JK 168-modda), o'g'irlik (JK 169-modda), aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish (JK 170- modda), mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish (JK173-modda), haridor yoki buyurtmachilarni aldash(JK 187-modda) jinoyatlarini ko'rsatish mumkin.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda respublikamizda 14 mln. 692 ming 500 nafar voyaga yetmagan mavjud bo'lib, mamlakatimizda har mingta voyaga yetmagandan bittasi jinoyat sodir etayotganligini ko'rish mumkin. Ya'ni, umumiy voyaga yetmaganlarning o'rtacha miqdori 32 foizi jinoyat subyekt yoshidagi voyaga yetmaganlarni tashkil qilib, hisobotlarda jinoyatlarda ishtirok etayotgan voyaga yetmaganlarning o'rtacha miqdori 3.5 mingtani tashkil etadi. Agar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish ishlari kelgusida bugungi kundagidek olib borilmasa, davlat xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar qatorida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining o'ni ham ko'tarilib ketishi mumkin.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi davlat xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Uning ta'sir doirasi shaxs va jamiyat xavfsizligiga taxdidi orqali yuzaga keladi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish mamlakatni kelgusida iqtisodiy rivojlanishi, siyosiy barqarorligi, va xalqimizning farovon turmushi uchun zamin yaratadi. Mamlakat kelajagi tushunchalari yosh avlod bilan ajralmas darajada bog'langan, o'smirlarning nechog'li barkamol bo'lib voyaga yetishi hamda davlat manfaatlarini himoya qila olishi xavfsizlikni barqaror va uzoq vaqt bardavom bo'lishi uchun sharoit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kegashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. - T.: «O'zbekiston», 2003, 40 b.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida //Xalq

so‘zi. 26 iyun.

3.O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. T.: «Adolat», 2004, 621 b.

4.Oliy Majlis 29 avgust 1997 yil Qarori. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi. //Xalq so‘zi. 1997 yil, 4 noyabr

ЛИДЕРСТВО МЕНЕДЖМЕНТА В ХОДЕ РАБОТЫ НАД ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЕКТАМИ

*Болтаев Азизжон Салимович, Магистрант по специальности проектное управление,
Банковско-финансовой академии РУз*

Аннотация: В статье была рассмотрена концепция, подчеркивающая важность лидерства в проектных командах. Проектные лидеры осуществляют разнообразные функции, и в соответствии с этим выделяются различные компетенции, включая как профессиональные, так и надпрофессиональные навыки. Приведены результаты исследования поведенческих надпрофессиональных компетенций лидеров.

Ключевые слова: лидерство, команда, проект, управление проектами, компетенции.

Abstract: The article examined a concept emphasizing the importance of leadership in project teams. Project leaders perform a variety of functions, and in accordance with this, various competencies are allocated, including both professional and supra-professional skills. The results of a study of the behavioral supra-professional competencies of leaders are presented.

Key words: leadership, team, project, project management, competencies.

Введение

В настоящее время признается, что лидерство играет ключевую роль во многих внутрифирменных процессах, особенно в условиях проектной работы, где его значение усиливается многократно. Многие представители больших успешных компаний отмечают, что активные действия лидеров способны придать внутренний импульс и дополнительную энергию проектам, что обеспечивает их результативность.

Признание ключевой роли лидеров в успехе проектов сопровождается обширными научными и практическими дискуссиями о необходимых качествах лидера проектов, их компетенциях и функциях. Эти дискуссии вызваны тем, что традиционное представление о лидерстве не всегда соответствует специфике проектной деятельности. В таких условиях лидерство претерпевает изменения в своем содержании, а компетенции лидеров инновационных проектов приобретают новые аспекты. Для поиска ответов на вопросы о том, каким должен быть лидер в инновационных проектах и какие задачи он должен выполнять, проводятся различные исследования. Данная работа представляет собой одно из таких исследований.

Лидерство в контексте инновационных проектов играет ключевую роль по нескольким причинам. Прежде всего, проектная деятельность всегда предполагает коллективное усилие и взаимодействие в команде. Управление проектом требует объединения усилий всех членов команды вокруг общей цели проекта, что способствует развитию лидерства внутри команды. Быстрое формирование лидерства

происходит в ситуации, когда перед командой стоит ясная цель.

Кроме того, проектные команды сталкиваются с ограниченными сроками выполнения работ и необходимостью максимальной эффективности. Эти факторы подчеркивают важность лидерства в проекте, так как лидер способен организовать и мотивировать команду для достижения целей проекта в заданные сроки.

Еще одним аспектом, который усиливает потребность в лидерстве в проектах, является то, что часто проектные команды формируются временно и не имеют опыта самоорганизации на начальных этапах. В таких ситуациях лидеру приходится играть ключевую роль в мотивации и направлении команды для достижения проектных целей.

Инновационные проекты требуют особого внимания к лидерству из-за неизбежных изменений и реакций членов команды на них. Лидер в таких проектах способен эффективно руководить командой, создавая атмосферу поддержки и стимулируя к инновационному мышлению и действиям.

Для того, чтобы понять, какими компетенциями должен обладать лидер проектных команд, необходимо уточнить круг его функций и направлений деятельности. При этом следует понимать, что лидером в проектной команде может стать как руководитель проекта, так и один из членов команды. В этой связи необходимо выделить несколько групп функциональных обязанностей лидеров. Руководитель проекта как лидер должен выполнять совокупность функций, связанных с управлением проектом. Согласно международным профессиональным стандартам в области проектного управления руководитель проекта должен уметь управлять работами проекта, сроками, бюджетом, рисками, качеством, изменениями в проекте, контрактами и поставками [5]. Это специфические профессиональные функции руководителя-лидера. Одним из важнейших направлений его деятельности является управление персоналом проекта. В рамках этого направления любой руководитель проекта должен быть способен отобрать людей в свой проект, распределить работы и проектные роли, осуществлять контроль достижения ключевых показателей эффективности, мотивировать сотрудников на достижение проектных целей, стимулировать и развивать команду. То есть, выделяются две группы функций руководителя-лидера: профессиональные функции, не связанные с управлением людьми, и профессиональные функции по командообразованию. Есть еще третья группа функций. Это функции, которые не входят в должностные обязанности, но их должен выполнять любой лидер. Причем, неважно является ли этот лидер руководителем проекта или он один из членов команды проекта. Речь идет о таких функциях лидера, как: сплочение команды вокруг общих идей, формирование ценностей группы, контроль за социально-психологическим климатом группы, снятие напряженностей и конфликтов, генерирование стержневой идеи существования и предназначения группы, способствование позитивной динамике группы и прочие

функции. Именно эти функции наиболее полно отражают смысл самого лидерства, а их исполнение превращает просто руководителя проекта в лидера, просто члена команды – в человека, занявшего лидерскую позицию. В соответствии с этими тремя группами функций выделяются компетенции лидера.

Одним из ключевых аспектов деятельности лидера проекта является управление персоналом. В этом контексте каждый руководитель проекта должен иметь способность отбирать подходящих людей для своего проекта, распределять обязанности и роли в команде, осуществлять контроль за достижением ключевых показателей эффективности, мотивировать сотрудников на достижение целей проекта и способствовать развитию команды. Таким образом, можно выделить две группы функций, связанных с руководством: профессиональные функции, не связанные с управлением персоналом, и функции по формированию команды.

Однако существует еще третья группа функций, которые не являются прямыми обязанностями, но должны выполняться любым лидером, независимо от того, является ли он руководителем проекта или членом команды. Эти функции включают в себя: сплочение команды вокруг общих идей, формирование ценностей группы, контроль за социально-психологическим климатом в группе, разрешение конфликтов и снятие напряженности, формулирование ключевой идеи существования и целей группы, содействие в поддержании позитивной динамики в группе и другие функции.

Именно выполнение этих функций наиболее полно отражает сущность лидерства, превращая простого руководителя проекта в настоящего лидера и члена команды в обладателя лидерской позиции. На основе этих трех групп функций выделяются компетенции лидера.

Компетенции представляют собой набор знаний, навыков, умений, способностей, мотивации, установок, ценностей, который реализуется лидером в поведении и который может быть измерен через поведение, а также который ведет к эффективности деятельности человека в роли лидера [4]. Компетенции, связанные с выполнением функций первых двух групп, – это профессиональные компетенции. Третья группа функций требует так называемых надпрофессиональных компетенций. В разных публикациях их называют еще ключевые, стержневые или прорывные компетенции [3]. Именно надпрофессиональные компетенции в последние годы признаются в качестве тех качеств, которые обеспечивают 60-80 % успеха проекта. Ценностные составляющие поведения лидера очень важны для проектной деятельности. Приведем результаты исследования С.Н. Апенько, показывающие значимость различных надпрофессиональных поведенческих компетенций руководителя проекта [1, 2]. Данные получены в ходе экспертного опроса руководителей проектов 38 предприятиях. Выделенные в табл. 1 компетенции в полной мере согласуются с функциями и ролью лидера в проектном управлении. Исследования показывают, что современный руководитель проектов должен прежде

всего проявлять лидерские качества и обладать навыками эффективного управления. Ему необходимо уметь работать в команде, активно участвовать в проектных процессах и вдохновлять своих коллег на достижение общих целей. Важными характеристиками являются надежность и стремление к достижению результатов, а также умение решать проблемы, согласовывать различные интересы и вести успешные переговоры, отстаивая интересы своей группы.

Когда речь заходит о наиболее востребованных формах лидерства для руководителя проектов, особое значение приобретает разделенное и командное лидерство. Эти подходы предполагают, что лидер создает среду, в которой каждый член команды имеет возможность проявить свои лидерские качества в различных областях, и вместе они могут стать ведущей силой среди других проектных групп. Кроме того, для проектного лидера важны эмоциональное, трансформационное и вдохновляющее лидерство. Он должен быть способен видеть будущее своей команды, сплотить и вдохновить своих последователей на стремление к развитию и достижению стратегических целей, наполняя их эмоциональной положительной энергией для достижения проектных результатов.

Таблица 1

Распределение ответов на вопрос: «Какими поведенческими компетенциями должен обладать менеджер по управлению проектами для успешного выполнения своих профессиональных задач?» (% от числа опрошенных)

Компетенции	2019 год			2020 год		
	компетенция очень важна	компетенция важна	компетенция не важна	компетенция очень важна	компетенция важна	компетенция не важна
Руководство и лидерство в проекте	73	23	4	76	24	0
Вовлеченность и мотивация	69	31	0	64	36	0
Работа в команде	58	42	0	66	34	0
Самоконтроль и самоорганизация	38	58	4	25	69	6
Уверенность и убедительность	46	42	12	44	46	10
Снятие напряженности, стрессоустойчивость	16	72	12	26	70	4
Творческий подход	12	69	19	18	68	14
Ориентированность на результат	54	46	0	51	49	0
Эффективность	42	58	0	40	60	0
Способность согласовывать интересы, вести переговоры	46	50	4	52	48	0
Способность управлять конфликтами и кризисами	31	46	23	45	31	14
Надежность	54	46	0	61	39	0
Понимание ценностей организации и проекта	19	54	27	37	49	14
Этика поведения	16	54	32	23	50	27
Разрешение проблем	42	50	8	56	37	7

Заключение

Подводя итог, можно сказать, что лидер проектной команды должен обладать широким спектром компетенций, начиная с узкоспециализированных и заканчивая поведенческими надпрофессиональными навыками. В отличие от других ситуаций, где могут возникать альтернативы лидерству, в проектах такие альтернативы отсутствуют. Лидерство в проектах является неотъемлемым элементом, способствующим успешному завершению проекта.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Апенько С.Н. Лидерство проектных менеджеров и команд в управлении конкурентоспособностью организации // Системная конкурентоспособность: концептуальные основы и практика реализации. Материалы международной заочной науч.-практ. конф. Омск, октябрь 2020. – Омск: Ом. гос. ун-т, 2020. – 420 с.
2. Апенько С.Н. Поведенческие компетенции человеческих ресурсов проекта в международных профессиональных стандартах // Диспут плюс. – Екатеринбург, 2019. – № 6 (16). – С. 27-36.
3. Иванов И.Я. Компетенции персонала диверсифицированного бизнеса в контексте международного регулирования качества рабочей силы // Управление человеческими ресурсами в условиях интеграции в мировое экономическое пространство: материалы интернет-конф. 5-го Байкал. кадрового форума. – Иркутск: Изд-во БГУЭП, 2019. – 212 с.
4. Половинко В.С., Сазонова М.Г. Система оценки персонала в концепции управления по результатам: монография / В.С. Половинко, М.Г. Сазонова. – Омск: Изд-во Омского гос. ун-та, 2021. – 255 с.
5. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK Guide). – 7-е изд. (Руководство к Своду знаний по управлению проектами). – PMI, 2021.

XORIJIY HARBIY OLIY O'QUV YURTLARIDA MUTAXASSISLARNI KASBIY TAYYORLASH SIFATINI TA'MINLASH BO'YICHA PEDAGOGIK TAJRIBA

*Nurulloyev Laziz Latipovich, Buxoro davlat pedagogika instituti, Harbiy ta'lim fakulteti
dotsenti (PhD)*

Annotatsiya: Hozirgi globallashuv davrida barcha sohalar qatorida harbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, mazkur tizimda zamonaviy bilim, ilg'or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish zaruriyatga aylandi. Ayni vaqtda harbiy ta'lim tizimida milliy o'zlikni anglash va jangovar ruhni, vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish ham davlatimizning doimiy e'tiborida. Qolaversa, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, armiya va xalq birligini ta'minlash borasida joylardagi davlat hokimiyati organlarining rolini oshirish bo'yicha ishlar butunlay yangi sifat bosqichiga ko'tarildi.

Jahon harbiy ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalarni o'rganish va uni milliy ta'lim tizimimizga muvoqlashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olib, maqolamizda Germaniya, Fransiya, Angliya, Vengriya, Ispaniya, Polsha, Turkiya, Shvetsiya harbiy maktabi va undagi ta'lim tizimini ko'rib chiqamiz. Xorijiy davlatlar ofitserlar ta'limi va taqdim etilgan harbiy ta'lim tizimlarini rivojlantirish yo'nalishlari tizimlashtirilgan. Keyinchalik har bir alohida armiyada ofitserlar tayyorlash sifatini ta'minlash xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, yodashuv, ilmiy, sifat.

Pedagogik nuqtai nazardan, Yevropada eng ko'p va jangovar tayyor bo'lgan Germaniya armiyasida ofitserlar tayyorlash tizimi o'rganish uchun qiziqish uyg'otadi. Tarixdan ma'lumki, umuman olganda, bugungi ko'rinishda oliy harbiy ta'lim Prussiyada paydo bo'lgan¹. O'z mazmuniga ko'ra, ofitserlar tayyorlash dasturi birinchi navbatda umumiy ta'lim fanlarini o'rganishga asoslangan bo'lib, bu ofitserlarning tahliliy qobiliyatini faol rivojlantirish imkonini berdi. General Karl Xorstning taklifi bilan 1808-yilda Germaniyada armiyani isloh qilish bo'yicha yangi loyiha ma'qullandi va qabul qilindi.² Bu Sankt-Peterburgda Navigatsiya maktabi tashkil etilganidan keyin 100 yildan ko'proq vaqt o'tib, lekin tasdiqlanishidan oldin sodir bo'ldi. Bosh shtab Rossiya Imperator akademiyasining birinchi nizomi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Germaniyada ofitserlar tayyorlash sifatini ta'minlovchi eng muhim element harbiy ta'lim da sinfiy xususiyatlarning yo'qligi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ofitserlar lavozimiga ko'tarilish faqat zodagonlarning vakolatlari bilan bog'liq emas, bu, birinchidan, ikkinchidan, ularning oliy harbiy bilim olishining aniq maqsadini, ya'ni ularda tahliliy qobiliyat va fikrlash qobiliyatini shakllantirish edi. Ofitserlarning tahliliy faoliyat qobiliyatini oshirishga qaratilgan ushbu tendentsiya asta-sekin aksariyat mamlakatlar uchun odatiy holga aylanib bormoqda.

Nemis ofitserlarining harbiy ta'lim sifatini ta'minlash tizimining rivojlanishi 19-asr boshlarida Prussiyaning eng yirik harbiy islohotchisi, Rossiyada ham xizmat qilgan general-mayor Karl fon Klauzevits (1780-1831) faoliyati bilan bog'liq. U o'zining "Urush haqida" nomli fundamental asarida ofitserlar o'rtasida maxsus harbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish zarurligini aniq misollar bilan isbotlab berdi. Kelajakda Germaniyada ofitserlarning sifatli harbiy bilim olishi ularning qudratli iqtisodiyoti va ilm-fan bilan ta'minlandi. Harbiy ta'lim sifatini ta'minlashning muhim elementi 1957 yilda Klauzevits kazarmalarida joylashgan ko'p bosqichli, xalqaro o'quv va ilmiy majmua bo'lgan Bundesverning Rahbarlik shtablari akademiyasi ochilishi hisoblanadi³. Akademiya Qurolli Kuchlarning turli bo'linmalari ofitserlarini qo'mondonlik va shtab lavozimlariga tayinlanishdan oldin tayyorlaydi.

Harbiy-siyosiy vaziyatni xolis baholashga asoslangan. Shu bilan birga, turli kuchlar va vositalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari havo kemalari turlariga ixtisoslashgan bo'limlar tomonidan ko'rib chiqiladi: quruqlik, havo kuchlari, dengiz floti va boshqalar, ular muayyan masalalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadilar.

Amaliyot bilan aloqani mustahkamlash maqsadida talabalarni o'qitish uchun ajratilgan o'quv vaqti byudjetining kamida 5 foizi turli davlat va harbiy idoralardan taklif etilgan amaliyotchilar tomonidan sarflanadi, jami 400 nafarga yaqin amaliyotchi jalb etilgan. Taklif etilgan amaliyotchilar talabalarning motivatsiyasini oshiradi, ma'lumot mazmunini va mashg'ulotlarning amaliy yo'nalishini oshiradi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, harbiy ta'lim sifatini ta'minlashda ularni ofitser sifatida tayyorlash uchun nomzodlarni professional tanlash katta rol o'ynaydi. Shunday qilib, masalan, ofitserga mayor yoki komandir harbiy unvonini berishning zaruriy sharti 14 hafta davomida o'tkaziladigan asosiy kursni muvaffaqiyatli o'zlashtirish hisoblanadi, bu dastur "Yuqori ofitser malaka kursi" deb nomlangan. , shundan so'ng barcha ofitserlar imtihon shaklida testdan o'tishlari kerak. Ofitserlar asosiy kursni muvaffaqiyatli tugatgandan keyingina keyingi kurslarga o'qishga qabul qilinishi mumkin. Bunday kurslar yiliga uch marta o'tkazilib, 600 dan ortiq ofitserni tayyorlashni nazarda tutadi. O'qitish jarayonida ofitserlar etakchilik va boshqaruv kursini, ijtimoiy fanlar, xavfsizlik siyosati va strategiyasini, shuningdek, Harbiy havo kuchlari, dengiz floti va quruqlikdagi qo'shinlarning turli turlari faoliyatining amaliy jihatlarini o'rganadilar. Har bir fan bo'yicha ikkita og'zaki va ikkita yozma imtihon topshiriladi.

Bundan tashqari, Germaniyada ham mahalliy, ham xorijiy ofitserlarni o'z vaqtida qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun sharoitlar yaratilgan. Buning uchun maxsus kurslar mavjud bo'lib, ularda qayta tayyorlash 8 hafta davomida amalga oshiriladi va har bir ofitser yangi lavozimga tayinlanishidan oldin ham milliy, ham qo'shma shtablarda amalga oshiriladi. Ushbu kurslar tinchlik davrida milliy Bosh shtabda va harbiy inqirozli vaziyatlarda qo'shma shtablarda ofitserlarni kasbiy faoliyatning yangi turiga qayta tayyorlashni o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy printsiplari o'quv

operatsiyalarini birgalikda rejalashtirish va virtual o'tkazish bo'lib, mazmuni harbiy fanlar, ijtimoiy-siyosiy masalalar va umumiy xavfsizlik muammolarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim nuqtai nazaridan, Germaniyada zamonaviy armiya rolini o'zgartirish orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy-madaniy tendentsiya ustunlik qiladi; turli Yevropa mamlakatlari aholisining milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda davlat, jamoat va boshqa tashkilotlar bilan barqaror hamkorlikni tashkil etish.¹ Yevropada faoliyat yurituvchi jamoat va boshqa tashkilotlar bilan. Germaniya Harbiy Akademiyasi doimiy ravishda Britaniya, Amerika, Italiya, Frantsiya, Kanada, Estoniya va boshqa harbiy o'quv markazlari bilan hamkorlik qiladi.

Frantsiyada harbiy ta'lim tizimi nihoyat 1878 yilda Oliy harbiy maktab tashkil etilgandan so'ng shakllana boshladi. Ofitserlar tayyorlashning yuqori sifati ularda tarixiy va ijobiy ta'lim usullaridan foydalanishni ta'minladi. Shu bilan birga, tarixiy usulni amalga oshirish natijasi oldindan ma'lum bo'lgan haqiqatga asoslandi, ammo kadetlar uning sabablarini, rivojlanish tendentsiyalarini o'rganishlari va amaliy xulosalar chiqarishlari kerak edi. Ijobiy usuldan foydalanish aprior mavjud kuch va vositalarni, ularni qo'llash sohalarini o'rganishga va amaliy xulosalar ishlab chiqishga yordam berdi⁶.

Shunday qilib, Frantsiyada ofitserlarning harbiy kasbiy ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha pedagogik tizimni rivojlantirishning asosiy tendentsiyalari quyidagilardir: ularning shaxsiyatini saqlash; zamonaviy urushning o'zgartirilgan usullarini operativ tatbiq etish; ta'lim ni axborot-ta'lim bazasi asosida modernizatsiya qilish; universitetlararo integratsiyani rivojlantirish; malaka oshirish uchun yetakchi mutaxassislarni keng jalb etish; xalqaro vazifalarga e'tibor qaratish.

Bugungi kunda Sen-Sir harbiy maktabi Fransiyanig milliy maqomdagi kam sonli maktablardan biri bo'lib, mamlakatning "eng kuchli o'ntalik" oliy ta'lim muassasalari qatoriga kiritilgan. Shuning bilan birga ushbu maktab nafaqat harbiy sohada, balki mamlakat oliy ta'lim tizimini ustuvor yo'nalishlarini muvofiqlashtirish va milliy kadrlarni tayyorlashda ham o'z o'rni va mavqeiga ega.

Ta'lim ning to'la kursi 3 yilga mo'ljallangan. 3 yillik ta'lim ni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchiga oliy maxsus ma'lumot to'g'risidagi diplom hamda leytenant unvoni beriladi. Undan so'ng bitiruvchilar qo'shin turlarining amaliy maktablariga yuboriladilar va u yerda muayyan lavozimga tayinlanishlaridan oldin tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha 2 yillik tayyorgarlikni o'taydilar.

Bugungi kunga kelib Sen-Sir maxsus harbiy maktabiga quyidagi toifadagi yoshlar qabul qilinadi:

12 yillik o'rta maktabni (litseyni) tamomlagan fuqaro yoshlar (shu jumladan (ko'p bo'lmagan miqdorga qizlar) (yosh chegarasi 22 yoshgacha);

oliy maktablar (universitetlar) qoshida tashkil etilgan 2 yillik tayyorlov sinflarini tamomlab bakalavr diplomini olgan yoshlar, tayyorlov harbiy litseylarning bitiruvchilari

(yosh chegarasi 22 yoshgacha);

universitetni tamomlaganlik to'g'risidagi diplomga ega unter-ofitserlar (yosh chegarasi 23-25 yoshgacha).

Ushbu maktabda o'quv jarayonini tashkil etish konsepsiyasi uchta asosiy va bir-birini to'ldiruvchi vazifalarni hal qilishga asoslangan: bo'lajak komandirlarni tayyorlash, ko'p aspektli akademik va harbiy-sport tayyorgarligi:

Harbiy-professional tayyorgarlik – bo'lajak ofitserlarda tanlangan harbiy mutaxassislikning o'ziga xos xususiyatlarini aniq anglashga asoslangan mustaxkam kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan;

Oxirgi vaqtlarda har yili maktabga 170 dan 200 tagacha odam jumladan 20 tadan ko'p bo'lmagan miqdorda qizlar) qabul qilinmoqda. Maktabda chet ellik fuqarolar ham tahsil olishadi: masalan 2001-yilda ushbu maktabni Fransiya bilan harbiy hamkorlikdagi 13 ta davlatning vakillari bitirishgan.

Qo'shma Shtatlarda ofitser kadrlarining harbiy-kasbiy ta'lim sifatini ta'minlash tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, AQSh armiyasidagi ofitserlarning harbiy kasbiy ta'lim sifati oliy harbiy maktablarning mavjudligi bilan ta'minlanadi. Ularni tayyorlash Fransiya va Germaniyada piyoda va otliq qo'shinlar taktikasini o'rgatish tajribasiga asoslangan. 1885 yilda podpolkovnik Talbot Yevropa tajribasini o'rganib chiqib, Germaniya va Fransiya'dagi ta'lim sifatiga nisbatan AQShda ofitserlar tayyorlashda kamchiliklar bor, degan xulosaga keldi¹. 1887 yilda AQShda harbiy kollej, shuningdek, piyoda va otliq qo'shinlar maktablari tashkil etildi. Ular korpus komandirigacha ofitserlarni tayyorlaganlar². 1933 yildan boshlab ofitserlarni tayyorlash dasturlariga dengiz va havo-desant operatsiyalarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari kiritildi.

1943 yil 2-jahon urushi davridayoq AQSHda KNSh yurisdiksiyasi ostida kollej ochildi; 1945 yil noyabrda - Mudofaa universiteti, 1947 yilda - harbiy maktablar va quruqlik, havo va dengiz kuchlarining katta ofitserlari maktabi. Keyinchalik, 1976-1986 yillarda harbiy ta'lim ning butun tizimi isloh qilindi.

Bugungi kunda Qo'shma Shtatlarda ofitserlar tayyorlash sifati Qurolli Kuchlar uchun yagona bo'lgan o'rta va oliy harbiy universitetlar tomonidan ta'minlanadi. Ularning faoliyatining asosi ofitserning hayot aylanishi modeli bilan belgilanadi (1-jadvalga qarang).

Ofitserlar korpusini ishga olish fuqarolik universitetlarida zahiradagi ofitserlar uchun harbiy bo'lmagan tayyorgarlik kurslarini tamomlagan Vest-Poynt, ofitser nomzodlik maktablari bitiruvchilari orasidan amalga oshirilishi mumkin; Qurolli Kuchlarda 8 yildan ortiq xizmat qilgan serjantlar, shuningdek, ayrim toifadagi texnik va ilmiy fuqarolik mutaxassislari; muqaddam zaxiradan chiqqan harbiy xizmatga qaytishni xohlovchilar.

Jadval 1**AQSh Qurolli Kuchlari ofitserlari uchun oliy ta'lim tizimining modeli**

Asosiy yoʻnalish	Qayta tiklash kurslari	Qoʻmondonlik shtablari va armiya kollejlari	Milliy mudofaa universiteti, Kanada va Buyuk Britaniya harbiy kollejlari (tanlov boʻyicha)	
Harbiy taʼlim bosqichlari				
1	2	3	4	5
Vzvod komandiri, XO rotasi komandiri, batalyon shtab xodimi	Faoliyat doirasini aniqlash. Batalyon, brigada holatiga kiritish. Rezervdagilar tarkibiga roʻyxatga olish. Ilg'or fuqarolik taʼlim i. Armiya ta'minot korpusi. Harbiy qismlar va xizmatlar maktablarida oʻqitish.	Karyera boʻyicha qaror qabul qilish. Brigada, boʻlinma holatiga kiritish. Maktab oʻqituvchisi. Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash. Birlashgan kuchlarda vazifalarni bajarish.	Qoʻllash doirasi malakasi. Boʻlinish holatiga kiritish, korpus. Zaxiradagi xodimlar. Majburiyatlar ni bajarish Birlashgan kuchlar.	Bosh qoʻmondonlik tarkibiga kiritish. Turga kirish qoʻshinlar. Boʻlim boshlig'i. Birlashgan kuchlarda vazifalarni bajarish.
Xizmat yillari				
0 -5	5 – 10	10 – 15	15 - 25	25 – 30

Harbiy ta'lim sifatini ta'minlash tizimi ko'p bosqichli, besh bosqichli. Ofitserlarni tayyorlash uchun asos harbiy maktab, ixtisoslik kurslari, harbiy qismlar maktablari va qo'mondonlik-shtab kollejlaridagi malaka oshirish kurslari hisoblanadi. Oliy qo'mondonlik va shtab tarkibini o'qitish Milliy harbiy kollej va Milliy mudofaa universiteti tomonidan amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich - Vest-Poyntdagi Armiya akademiyasida o'qish, u 17-22 yoshli fuqarolik yoshlari orasidan qabul qilinadi; muntazam armiya va zahiradagi oddiy va serjantlar, kirish imtihonlarini, shu jumladan ingliz tili, matematika va ijtimoiy fanlardan inshoni muvaffaqiyatli topshirgan taqdirda. Yillik qabul qilish 1500 kishini tashkil etadi, ularning uchdan bir qismi chiqarib yuborilishi mumkin. Bitiruvchilarga "ikkinchi leytenant" boshlang'ich ofitser unvonlari va bakalavr darajasi beriladi. Ta'lim sifati umumta'lim va kasbiy fanlarni amalga oshirish bilan belgilanadi. Oliy matematika, fizika, kimyo, geografiya, astronomiya, topografiya, chizmachilik, kompyuter texnologiyalari va dasturlash, ingliz tili va adabiyoti, chet tili va mintaqashunoslik, tarix, falsafa, iqtisodiyot, fuqarolik va harbiy qonunchilik asoslari, xalqaro huquq, davlat tashkiloti va boshqaruv, xalqaro munosabatlar, harbiy pedagogika va psixologiya umumta'lim fanlari hisoblanadi.

Kasbiy fanlar o'qitish profiliga qarab muhandislik va amaliy fanlarni o'z ichiga oladi. Tuzilishga ko'ra, tayyorgarlik ikki bosqichli. 8 haftalik dastlabki harbiy tayyorgarlik birinchi bosqichni tashkil qiladi. Ikkinchi bosqichda o'quv markazlarida 4 yil davomida o'qitish amalga oshiriladi. Birinchi yilda muhandislik va zirhli mashinalar, o'q otish va artilleriya qurollari, aloqa vositalari o'rganiladi. Kursantlar amaliyotda bo'linmalar tarkibida taktik harakatlarni amalga oshiradilar. Ikkinchi kurs oxirida kursantlar vertolyotni boshqarish texnikasini o'rganishni va havo-desant mashg'ulotlaridan o'tishni tanlaydilar. Shu bilan birga, kursantlar qo'shinlarda tayyorgarlikdan o'tadi va quruqlikdagi qo'shnlarni joylashtirish punktlariga tashrif buyuradi.

Ikkinchi bosqichda kursantlar barcha ofitserlar uchun mo'ljallangan maxsus kursni o'zlashtiradilar. Maxsus kuchlarda xizmat qilish uchun Fort Braggda maxsus tanlov mezonlari mavjud.

Uchinchi bosqichda malaka oshirish kurslarida o'qitish amalga oshiriladi. Yaxshilash qo'shinlarning kapitan darajasidagi ofitserlarning turli mutaxassisliklariga bo'lgan ehtiyojlariga qarab amalga oshiriladi.

To'rtinchi bosqichda qo'mondonlik-shtab kollejlari tomonidan 10-15 yillik ish stajiga ega podpolkovnik unvoniga ega ofitserlar tayyorlash amalga oshiriladi. Ofitserlar o'rtasida qo'mondonlik va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. O'qitish 40 hafta davomida shaxsan yoki uch yildan ortiq bo'lmagan holda sirtidan o'tkaziladi.

Beshinchi bosqich - Milliy Mudofaa Universitetida katta va yuqori martabali ofitserlarni o'qitish. Ushbu harbiy universitet Qurolli Kuchlar qo'mondonlik-shtab kolleji, milliy harbiy va harbiy-sanoat kolleji, shuningdek, axborot resurslarini tarqatish kolleji negizida birlashtirilgan. 42 hafta, kunduzgi yoki 2 yil davomida sirtqi bo'lim talabalari harbiy rejalashtirish, ichki va tashqi siyosat, AQSh harbiylari va NATO ittifoqdosh kuchlaridan foydalanish strategiyasi masalalarini o'zlashtiradilar. Universitetda Mudofaa vazirligi markaziy apparatida ishlash uchun harbiy kasbiy ma'lumotga ega davlat xizmatchilari ham tayyorlanmoqda.

Qo'shma Shtatlarda ofitserlarning ta'lim sifatini ta'minlash tizimining xususiyatlari ofitserning hayot tsikli modeliga o'quv jarayonining diqqat markazida bo'ladi; harbiy ta'lim ning butun tizimining mazmunini insonparvarlashtirish; milliy tuzilmalar rahbariyati uchun ham, NATOning birlashgan kuchlari uchun ham boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish.

Buyuk Britaniyada ofitserlarning harbiy kasbiy ta'lim sifatini ta'minlashning pedagogik tizimi, bir tomondan, o'zining ko'p asrlik tarixiy tajribasi mavjudligi va uning yangi operatsion va strategik talablarga moslashuvi bilan belgilanadi. O'ta murakkab vazifalarni ijodiy hal qila oladigan, shuningdek, qo'shinlarning taktik va tezkor imkoniyatlarini zamonaviy harbiy-siyosiy vaziyat haqiqati bilan taqqoslay oladigan ofitserlar. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ofitserlar ta'limi sifati harbiy doktrinaning

qoidalarini ishlab chiqish va qo'llashga, shuningdek, ofitserning qo'l ostidagilarni jang qilish qobiliyatini ta'minlaydigan ma'naviy va jangovar ruhni ta'minlash tizimiga bog'liq.

Xalqaro integratsiyaga yo'naltirilganlik shundan dalolat beradiki, 1997 yildan boshlab mamlakatimizning barcha ofitserlarini ixtisoslashtirilgan akademiyalarni tamomlagandan so'ng qo'mondonlik va shtab tayyorlash Buyuk Britaniya OKSHK da olib borilmoqda. Harbiy ta'lim ning yaxlit tizimi metodologiyasining didaktik asoslari ofitserlar tayyorlashning ilg'or xarakterini belgilovchi tamoyillardir; zobitlarni fuqarolik oliygohida emas, balki harbiy muassasada tayyorlash zarurati; didaktik sa'y-harakatlarni birlashgan kuchlarning birgalikdagi harakatlariga jamlash; zobitlar orasida yuqori noaniqlik bilan tavsiflangan muammolarni samarali va ijodiy hal qilish imkonini beradigan fikrlashni rivojlantirish zarurati. OKSHK o'qituvchilari o'quv jarayoni davomida o'quvchilarda tavakkal qilish, munozara olib borish, oddiy yechimlarga shubha qilish odatlarini shakllantiradi. Ofitserlarning ta'lim sifati ularning tezkor san'at va qurolli kuchlardan foydalanish muhitini o'rganishi bilan ta'minlanadi; harbiy boshqaruv; rahbarda yetakchilik fazilatlarini shakllantirish yo'llari va hokazo.. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etish modul asosida amalga oshiriladi va dastlabki tanishuv, ma'ruza, guruh seminarlari, munozaralar, amaliy mashg'ulotlar yoki insho yoki chizma ko'rinishidagi yozma ish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, kadrlar tayyorlash sifati tizimli va ilmiy yondashuvlarni qo'llash, ofitserlarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan uslublarni qo'llash, o'qitishning yuqori texnologiyalari, eng muhim davlat rivojida ofitserlarning faol ishtiroki orqali ta'minlanadi. va siyosiy hujjatlar va boshqalar.

Dissertatsiya tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, harbiy ta'lim tizimining har birida ularning sifat ko'rsatkichlarini ta'minlaydigan umumiy va o'ziga xos elementlar mavjud (2-jadvalga qarang)1.

Jadval 2

AQSh, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniyada ofitserlar tayyorlashning sifat xususiyatlari

Ko'rsatkichlar	Harbiy ta'lim tizimlari			
	AQSh	Germaniya	Fransiya	Buyuk Britaniya
Kelib chiqishi	1887 yil podpolkovnik Talbot (1943–1947)	1808 yil General Karl Horst	15.06. 1878y. Daraja	19-asr oxiri
Shakllanish	General Eyzenxauer davri - XX asr o'rtalari.	K. Klauzevits davri - XIX asrning birinchi	1-jahon urushi	20-yillarning boshlariga kelib. 20-asr.

		uchdan bir qismi Asr		
Rivojlanish	“Sovuq urush”	1-jahon urushi	Sharl de Goll davri, 50-70 yillar gg. 20-asr	20-yillarning boshidan. 20-asr
Yaratilish vaqti yoki transformatsiyalar	1976-1986 yy	1957 y.	1993 y.	1997 y.
Harbiy universitet nomi	Qo'mondonlik- shtab va armiya kollejlari	Etakchilik akademiyasi	Birlashgan qurol mudofaa kolleji	Birlashgan qo'mondonlik- shtab kolleji
Ko'rsatkichlar	Harbiy ta'lim tizimlari			
	AQSh	Germaniya	Fransiya	Buyuk Britaniya
Treningning davomiyligi	4-bosqich 40 - haftalar (to'liq kunlik) - 4 yildan ortiq bo'lmagan (sirtidan); 5-bosqich 42 hafta (to'liq kun) 2 yilgacha (to'liq kunlik)	KPShO - 2 yil; CCSO - 14 hafta; RCAF - 8 hafta	1 y.	2 y.
Yiliga o'qitilgan ofitserlar soni	4-bosqich - 300- 500, 5-bosqich - 550 - 600.	KPShO - 100- 105, KKSO - 600 gacha, KKVS - 500 gacha.	300-315 kishi, shu jumladan 110 tasi boshqa mamlakatlard an	330 kishi, shu jumladan. 90 tasi boshqa mamlakatlardan

AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya va Germaniyada harbiy ta'lim sifatini qiyosiy tahlil qilish natijalari Rossiya Federatsiyasidagi harbiy ta'lim tizimini turli nuqtai nazardan

ko‘rib chiqishga imkon beradi va shuning uchun ko‘proq. uning samaradorligi va sifatini belgilovchi omillarni xolisona asoslash. Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlardagi harbiy ta‘lim tizimining sifat xususiyatlarini belgilovchi omillarni hisobga olgan holda, Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlarida ofitserlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlarini shakllantirishga yordam beradi.

XULOSA

Chet el mamlakatlari AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya va Germaniya maxsus harbiy maktabi faoliyatini o‘rganish xulosalariga ko‘ra quyidagi jihatlarni O‘zbekiston Respublikasining harbiy ta‘lim tizimiga joriy qilish masalasini ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

mudofaa vazirligi oliy harbiy ta‘lim muassasalari o‘quv jarayonini kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazish (dastlabki davrda AKT va aloqa harbiy institutida sinov tariqasida);

oliy ta‘lim muassasalarining gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlar bo‘yicha professor-o‘qituvchilar lavozimlariga nomzodlarni tayinlashni vazirlik miqyosida davlat organlarining tavsiyalari asosida amalga oshirish;

OHTMLar kursantlari va tinglovchilari bilan ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlarda taniqli olimlar, fan arboblari, akademiklar, vazirlik va idoralar rahbarlari, hukumat vakillari, senatorlar va deputatlar tomonidan dolzarb mavzularda ma‘ruzalar o‘qish tajribasini yo‘lga qo‘yish;

ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘rganishning samarali usullarini joriy qilish orqali (o‘quv vaqtlarida va undan tashqari vaqtlarda) kursantlarning o‘qishni tamomlagandan so‘ng bitta (yoki ikkita) chet tillarida erkin so‘zlasha olishlarini ta‘minlashga erishish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. П. Колесов, А.Стрелецки. Сен-Сирская специальная военная школа сухопутных войск Франции (2006) // Зарубежное военное обозрение №6 2006
2. Odile Roynette, «La mixité : une révolution en danger?», L'Histoire № 455, январь 2019, p. 12-19.
3. Феличкин Ю. М. Как я стал двойником: Воспоминания. — Ростов н/Д: Ред. журн. «Дон», 1990. — 160 с. — ISBN 5-7509-0206-4.
4. Сен-Сирская военная школа // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.
5. См.: Фильков С.М. Психолого-педагогическая теория и практика подготовки личного состава Вооруженных Сил Великобритании [Текст]: Дис. ... канд. пед наук. М., 1990. С. 49.

6. См.: Баридж Б.К. Адаптация системы военной подготовки и образования к новым стратегическим и оперативным требованиям [Текст] // Междун. конференция, 28 февраля - 2 марта 2001 г. М., 2001. С. 114.

7. Фильков С.М. Психолого-педагогическая теория и практика подготовки личного состава Вооруженных Сил Великобритании [Текст]: автореф. дис. ... канд. пед наук. М., 1990. С. 12-13.

8. Шлыков В.В. Тенденции развития военного профессионализма [Текст] //.: Международная конференция, 28 февраля - 2 марта 2001 г.: Тез. докл. М.: ОВА, 2001. С. 110-116.

9. Баридж Б.К. Адаптация системы военной подготовки и образования к новым стратегическим и оперативным требованиям [Текст] // Международная конференция, 28 февраля - 2 марта 2001 г. М.: ОВА, 2001. С. 111;

10. Фильков С.М. Психолого-педагогическая теория и практика подготовки личного состава Вооруженных Сил Великобритании [Текст]: Дис. ... канд. пед наук. М., 1990. С. 76.

BO‘LAJAK PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Xoliqov Ixtiyor, Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta'lim fakulteti dotsenti.

<https://orcid.org/0000-0002-5772-9367>

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda kasbiy xususiyatlarni shakllantirish masalalari keng yoritilgan. Maqolaning asosiy mazmuni shundan iboratki, pedagog, jamiyatning ishonchli vakili, zero, jamiyat unga o‘zining eng qimmatli boyligi, umidi, ishonchi va kelajagi bo‘lgan yosh avlodga bilim hamda tarbiya berishni ishonib topshirgan. Pedagoglik kasbi oliyjanob va murakkab kasb sanaladi. Pedagogik faoliyatga o‘z hayotini bag‘ishlagan har bir kishidan doimiy ijod, izlanish, ulkan sahovatli qalb, o‘quvchilarga nisbatan muhabbat, o‘z kasbiga cheksiz sadoqatni talab etadi.

Аннотация: В данной статье описаны перспективы формирования профессиональных характеристик при подготовке будущих педагогических кадров. Основное содержание и суть статьи заключается в том, что педагог является доверенным лицом общества, потому что общество доверяет ему будущую молодежь, которая является его самым ценным богатством, надеждой, доверием и будущим. Эта благородная и сложная профессия требует от каждого, кто посвящает ей свою жизнь, постоянного творчества, исследовательской работы, большой щедрости, любви к ученикам и безграничной преданности своей профессии.

Abstract: This article describes the prospects for the formation of professional characteristics in the training of future pedagogic personnel. The main content and essence of the article is that the pedagogue is a trusted representative of the society, because the society entrusts him with the future youth who are its most valuable wealth, hope, trust and future. This noble and complex profession requires constant creativity, research, great generosity, love for children, and unlimited devotion to his profession from everyone who devotes his life to it.

Kalit so‘zlar: Bo‘lajak pedagog kadrlar, pedagogik mahorat, pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyat maqsadi, bo‘ekti va vositasi, kasbiy bilim, pedagogik texnika, pedagogik vaziyat, pedagogik topshiriq.

Ключевые слова: Будущие педагогические кадры, педагогическое мастерство, педагогическая деятельность, цель, объект и средства педагогической деятельности, профессиональные знания, педагогическая техника, педагогическая ситуация, педагогическая задача.

Key words: Future pedagogic personnel, pedagogical skills, pedagogical activity, goal, object and means of pedagogical activity, professional knowledge, pedagogical technique, pedagogical situation, pedagogical assignment.

Kirish: Zamonaviy ta'lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy talablarga mos metodlarni qo'llash orqali yuqori saviyaga ega pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimi keng joriy qilinmoqda. Ta'limning tarbiya bilan uyg'un ravishda amalga oshirilishi, ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Insonni tarbiyalash har bir zamonda murakkab vazifalardan biri bo'lib kelgan. Hatto jamiyat me'yordagi stabil rivojlanish bosqichida turgan vaqtda ham o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida turli muammolar paydo bo'ladi. Bugungi kun muammolari esa (ishsizlik, qonunbuzarlik, oilaviy ajrashishlar, noqonuniy dori vositalari va hatto giyohvand moddalardan foydalanish, shahsiy va professional maqsadning yo'qligi, diniy ekstremizm, terrorchilik va h.o) ta'lim-tarbiya jarayonini yanada murakkablashtirib yubormoqda.

Asosiy qism: Ma'lumki, ta'lim - tarbiya deb atalgan murakkab jarayon sub'ektlaridan biri – bu o'qituvchi. Ho'sh, bugungi kun o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak? Uning faoliyati maqsadi va vazifalari nimalardan iborat? Uning bilim saviyasi, salohiyati, mahorati va qobiliyatini o'stirish nimalarga bog'liq? Eng avvalo o'qituvchi shuni chuqur anglashi lozimki, u jamiyatning ishonchli vakili, zero, jamiyat unga o'zining eng qimmatli boyligi, umidi, ishonchi va kelajagi bo'lgan bolalarini topshiradi. Bu oliyjanob va murakkab kasb unga hayotini bag'ishlagan har bir kishidan doimiy ijod, izlanish, ulkan sahovatli qalb, bolalarga muhabbat, o'z kasbiga cheksiz sadoqatni talab etadi. Bunday mas'uliyatli vazifani faqatgina dialektik fikrlash qobiliyatiga, yorqin shahsiy sifatlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini uzluksiz rivojlantirish va tarbiyalashga tayyor bo'lgan o'qituvchi bajara oladi. Zero, o'qituvchi shahsi pedagogik jarayon muvaffaqiyatining asosiy sharti va vositasidir. Har qanday faoliyatda bo'lgani singari, pedagogik faoliyatning ham bir nechta tarkibiy qismlari mavjud. Bular: maqsad, vosita, ob'ekt, sub'ekt. Avvalo, pedagogik faoliyat maqsadi o'ziga hosligi bilan ajralib turadi.

Bular quyidagilar: 1. O'qituvchilik ishi maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni o'qituvchi o'z mehnati yakuniy natijalarini tanlashda erkin emas, uning hatti-harakatlari har tomonlama barkamol shahsni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Pedagogik faoliyat avlodlar o'rtasidagi ijtimoiy vorisiylikni amalga oshirish, yoshlarni mavjud ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq insoniyat ijtimoiy tajribasini egalashdagi tabiiy imkoniyatlarini yuzaga chiqari uchun xizmat qiladi. Ammo maqsaddan kelib chiqadigan muayyan vazifalarni sharoitga mos ravishda o'qituvchining o'zi belgilashi kerak. Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadi yakuniy natijasiga ko'ra jamiyat tomonidan belgilanadigan aniq ijtimoiy buyurtma bo'lib, uning vazifalari muayyan pedagogik vaziyatlarda turlicha belgilanadi. Ana shu holatning o'ziyoq o'qituvchidan ijodiy yondoshuvni, maqsadni ko'ra olish, uni muayyan sharoit bilan taqqoslay olishni talab etadi.

2. O'qituvchi faoliyati har doim boshqa faoliyat orqali boshqariladiga faoliyatdir. Bu o'ziga xos meta - faoliyat bo'lib, o'qituvchilarning faoliyatiga mos etib quriladi. Jaloliddin Rumiyning ustoz sifatidagi faoliyati bilan bog'liq yuqorida keltirilgan misol ustoz – murabbiyning jazavaga tushish, baqirish bilan emas, balki o'zini tutish, og'ir – vazminlik,

kamtarlik va samimiyat, qat'iyat bilan bergan javobi, tolibi ilmning xatosini darhol tushunib etishi va qilmishidan qattiq xijolat bo'lishiga va majlisni tashlab chiqib kelishgan sabab bo'ladi. Ilmu tolibining bu tutgan yo'li uning yuksak darajadagi ongliligini belgilamasada, shu hatti – harakatning o'ziyoq pedagogik faoliyat maqsadi tomon birgalikda qo'yilgan qadamdir. Binobarin, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi shundaki, u o'qituvchining ham, o'quvchining ham maqsadi bo'lishi kerak. Meta faoliyatning mohiyati ana shunda.

3. Boshqa kishi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, o'qituvchining maqsadi, tarbiyalanuvchining kelajagiga qaratilgan bo'ladi. Bu maqsad o'qituvchi uchun yaqin va tushunarlidir. U “Sen bilishing, bajara olishing va bajarishing kerak”, - deya talab qiladi. O'quvchi esa bugungi kunning quvonchihu tashvishlari bilan yashaydi, kelajak uning uchun juda yiroq. Sh.A.Amonashvilli bu ziddiyatga “tarbiya fojiasining asosi” deb baho beradi. O'qituvchi ayni zamonda yashab turib kelajakni barpo etadi. Bu juda murakkab vazifa. Buni chuqur anglagan usta - pedagoglar har doim o'z faoliyati logikasi o'quvchi ehtiyojlariga tayanib quradilar. Masalan, Sh.A.Amonashvilli o'z faoliyat dasturini bola dasturiga yaqinlashtirishga intilgan. E.N.Ilina esa doimiy matnlardan foydalanib, sinfdagi vaziyatga ta'sir o'tkazishga harakat qiladi. O'qituvchi – pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlariga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim.

Hozirgi kunda o'qituvchining pedagogik mahoratida “Bilish, tushunish, o'ylash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash” kabi didaktik qonuniyatlar ta'lim berishning muhim kategoriyalari sifatida e'tirof etiladi. Shaxsga ta'lim va tarbiya berish nihoyatda murakkab jarayon, qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilovchi muhim ahamiyatga molik bo'lgan omil ekanligi ta'kidlanadi. Bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni yil sayin yangilanib, zamon talablariga moslashib bormoqda. Zamonaviy o'qituvchi ta'limni qanday tashkil etishi zarur?

1. Avvalo u o'z mutaxassisligi bo'yicha ta'lim beradigan fanlardan pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashhulotlarini mazmunan yaxlitligini ta'minlashi. Pedagogik va axborot texnologiyalari hamda o'quvchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llashi, o'quv mashhulotlarida pedagogik va axborot texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini uyg'unlashtirish malakasiga ega bo'lishi. Ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitish mazmuniga mos ravishda pedagogik tizimni loyihalay olishi. Ta'lim beradigan fanlar turkumini rivojlantirish istiqbollarini ochib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni muntazam amalga oshira olishi. Ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda jaryonning rivojlangan mamlakatlarida rida pedagogika va psixologiya sohasida erishilayotgan

ilg'or tajribalarni amalda modernizatsiya qilgan holda qo'llashi. O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlari va ma'naviy meroslaridan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda foydalana olishi. Darsning barcha turlarida, mashg'ulotlarda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qitish metodlaridan foydalanishi.

O'qitadigan fan turkumi bo'yicha avtomatlashtirilgan ta'lim tizimi uchun amaliy dasturlar paketini yaratishi lozim. Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi qiyofasidagi shaxs pedagogik psixologik jihatdan yuksak tayyorgarlikka ega bo'lishi uchun, unda quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi kerak (so'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarni ifodalaydi): O'qituvchi jamiyat ijtimoiy va siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi shart. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim tarbiyaviy faoliyatda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'z faoliyati tashkil etishi kerak. O'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda pedagogik va axborot texnologiyalarining eng samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi davr talabidir. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativ layoqatni, pedagogik texnika sirlarini (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

Xulosa: xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, o'qituvchi pedagogik-psixologik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlar hamda kompetensiyalarni tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni o'z iroda kuchi bilan bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O'qituvchi o'quvchilar, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchining muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi, u bilan tillasha olishiga imkon beradi.

Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur. O'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar orasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi. Demak, pedagogik faoliyat maqsadi o'qituvchidan jamiyatning ijtimoiy topshirig'iga nisbatan shahsan qabul qilish; muayyan hatti-harakatlarning maqsad va vazifasiga ijodiy yondoshish; o'quvchi qiziqishlarini hisobga olish va uni o'quv faoliyati

maqsadi sifatida takomillashtira olishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Najmiddinova G.N. Pedagogik mahorat kursining texnologiyalashtirilgan ma'ruza matnlari.-T.TDPU,2019.
2. Турғунов С.Т., Мақсудова Л.А. Педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш. – Т.: “Фан”, 2009. – 168 б.
3. Педагогика. (Под ред. П.И. Пидкасистого).- М.: Педагогическое общество России, 2003.- 608 с. 1. Педагогика. (Под ред. П.И. Пидкасистого).
4. Холиқов, И. Р. (2023). Бўлажак офицерларда педагогик компетенцияларнинг шаклланиши. *Наука и технологии*, 1(2).
5. Холиков, И. (2023). Harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida pedagogik kompetensiyani takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 43(43).
6. Холиқов, И. Р. (2022, May). Олий таълим муассасаси талабаларида педагогик компетенцияни шакллантириш. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 248-250).

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА КАСБИЙ - ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ АСОСЛАРИ

*Тиллоев Улуғ Умарович, Бухоро давлат педагогика институти, Ҳарбий таълим
факультети ўқитувчиси*

Аннотация: Ушбу мақолада олий таълим муассасаларида талабаларнинг касбий - педагогик компетенциясини халқаро таълим дастурлари талаблари асосида шакллантириш, замонавий ўқитиш технологияларидан фойдаланиш, таълим технологияларидан фойдаланиб дарсларни тўғри ташкил этиш, ҳамкорлик қилиш, дарсдан кейинги фаолият, лойиҳалаш ва мустақил ишлаш фаолиятида иштирок этиш, таълим жараёнида талабанинг ижодкорлик имкониятларини ривожлантириш масалалари ёритилган.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования профессионально-педагогической компетентности студентов в высших учебных заведениях на основе требований международных образовательных программ. Использования современных технологий обучения, правильной организации занятий с использованием образовательных технологий, сотрудничества, участия в послеклассных мероприятиях, проектирования и самостоятельной работы, развитие творческих возможностей студента в образовательном процессе.

Abstract: This article discusses the issues of developing the professional and pedagogical competence of students in higher educational institutions based on the requirements of international educational programs. The use of modern teaching technologies, the proper organization of classes using educational technologies, cooperation, participation in after-class events, design and independent work, the development of student creative abilities in the educational process.

Калит сўзлар: касбий - педагогик компетенция, халқаро таълим дастурлари, замонавий ўқитиш технологиялари, ижодкорлик, мустақил ўқиш, компетентлик, мотивация, фаолият, лойиҳалаш, мустақил ишлаш, таълим жараёни.

Ключевые слова: профессионально - педагогическая компетентность, международные образовательные программы, современные технологии обучения, креативность, самостоятельное обучение, компетентность, мотивация, активность, дизайн, самостоятельная работа, образовательный процесс.

Keywords: professional and pedagogical competence, international educational programs, modern learning technologies, creativity, independent learning, competence, motivation, activity, design, independent work, educational process.

Бугунги кунда ҳар бир ўқитувчи педагогик фаолиятининг мақсади, замонавий дарс воситалари асосида ОТМда талабаларнинг таянч ва фанга оид компетенцияларини шакллантириш учун шароит яратиш ҳисобланади. Бу давр талаби. Асосий педагогик фаолият вазифаларига қуйидагилар киради: - 65 -

амалиётда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш; - талабаларнинг таянч компетенцияларини шакллантириш учун дарс тизимларини яратиш; - талабаларнинг компетентлиги ривожланганлиги мониторингини амалга ошириш ҳамда ташқи экспертиза учун натижаларни тақдим этиш;- дарсларни унумли ташкил этиш учун интеллектуал ресурс базалари билан таъминлаш. Касбий- педагогик компетенцияси билиш вазифаларини қўйишдан бошланади.

Касбий - педагогик компетенциялари мустақил ишлаш ва лойиҳалаш фаолияти шакллантиришга ёрдам беради. Айни лойиҳалаш методи ОТМ талабаларининг халқаро таълим дастурлари талабларида кўрсатилган тасаввурни бойитишни, фикрлаш операцияларини илгари суришга, кузатиш, танлаш, натижаларни баён этишга, хулосалар чиқаришга ўргатишга ёрдам беради. Мустақил тарзда педагогик фаолиятни лойиҳалаш талабаларда ўз изланишлари натижаларини оғзаки ёки ёзма тарзда билдиришини шакллантиради. Бу ҳам яна бир касбий - педагогик компетенцияси ҳисобланади. Замонавий таълим технологияларидан фойдаланиб дарсларни тўғри ташкил этиш, ҳамкорлик қилиш, дарсдан кейинги фаолият, лойиҳалаш ва мустақил ишлаш фаолиятида иштирок этиш, ОТМда талабаларнинг касбий- педагогик компетенцияларини шакллантиришнинг муҳим шarti ҳисобланади.

С.Г.Воровщиков касбий - педагогик компетенцияни таълим олувчиларнинг ўз-ўзини бошқариш фаолияти деб изоҳлайди [1]. А.В.Хуторскийнинг таъкидлашича, касбий- педагогик компетенцияси - «... бу ўз ичига мантикий, методологик, умумқув фаолияти элементларини, мақсадни қўйишни ташкил этиш, режалаштириш, таҳлил қилиш, рефлексия, ўзини ўзи баҳолаш методларини олувчи талабанинг мустақил билиш фаолияти доирасидаги компетенциялар йиғиндисидан иборат деб таърифлайди [4]. Ўрганилаётган объектга нисбатан талаба – креатив кўникмаларни ўзлаштиради, атроф-муҳитдан ҳақиқий билимларни излаб топишни амалга оширади, ностандарт ҳолатларда ўзини кўрсатади. Бу компетенциялар доирасида халқаро таълим дастурлари таҳлил қиладиган талабаларнинг ўқиш ва тушуниш даражаси ҳамда ўқиш саводхонлиги мазмунига тегишли талаблар шаклланади. Тадқиқотчи Э.Ф.Зеер “Касбий- педагогик компетенцияси ўқув-билиш вазифаларини мустақил ҳал этиш қобилияти, ахборот ресурсларни мустақил қўллаш, ахборотларни олиш ва тизимлаштириш, мустақил ишлаш малакаларини шакллантириш” дея таъкидлайди [3]. Тадқиқотимизда халқаро таълим дастурлари талаблари асосида касбий - педагогик компетенциялари компонентлари тизимлаштирилади. Замонавий таълим жараёнида талабанинг ижодкорлик имкониятларини ривожлантиришга, билим даражасини оширишга ҳамда мустақил ишлаш қобилиятини шакллантиришга йўналтирилган.

Энг асосийси универсал ўқув фаолиятини шакллантириш ҳисобланади.

Амалиётнинг кўрсатишича, кўпчилик талабалар ўз меҳнатини мустақил - 66 тарзда ташкил эта олмайди, ўқув қийинчиликлари бор, бу ўз навбатида ўқишга қизиқишнинг йўқлиги ҳамда ўзига ишонмасликдан келиб чиқади. Яхши ўқиш, ўз қобилиятларини англаш, турли топшириқларни сифатли бажариш малакаси – компетентлик ҳиссининг юзага келишига олиб келади [2]. ОТМнинг талабаси: фан дастурида белгиланган ҳажмдаги ва даражадаги билимларга эга бўлса; амалий характердаги турли топшириқларни сифатли бажариш, мустақил ўқиш ва изланиш фаолиятининг фаол субъекти ҳисобланса, рефлексив хулққа қобилиятли бўлса; адекват ўз-ўзини баҳолай олса, ўқиш ва тушуниш даражасини таҳлил қила олса, ёш хусусиятига кўра таянч компетенцияларга эга бўлса компетентли деб ҳисоблаш мумкин. Ана шундай компетентли талаба халқаро таълим дастурлари талабларига рақобатбардош номзод бўла олади.

Касбий - педагогик компетенциялари ўз ичига қуйидаги кўникмаларни олади: мақсад қўя олиш ва унга эришишни ташкил этиш, ўз мақсадини тушунтириш; ўз фаолиятини режалаштириш; таҳлил қилиш, рефлексия, ўз-ўзини баҳолашни ташкил этиш; кузатилаётган фактларга, ўрганилаётган ўқув материалларига саволлар бера олиш, воқеа ҳодисалар сабабини излаш; ўрганилаётган асар, муаммо бўйича ўзининг тушунганлиги ёки тушунмаганлигини айтиш; билганарини оғзаки ва ёзма айта олиш; берилган саволларни ечишнинг муҳим воситалари ва йўллари, аниқ деталлари ва фактларини танлаш; натижаларни ёзиш, хулосаларни шакллантириш; ўз ўқув фаолиятини, тушунган-тушунмаганлигини назорат қилишни амалга ошириш. Ушбу кўникмаларни талабаларда мустақил тарзда амалга оширишга эришиш натижасида, келгусида ўтказилиши режалаштирилган халқаро таълим дастурларида республикамизнинг юқори рейтинг кўрсатишига эришиш мумкин.

Халқаро таълим дастурлари талаблари асосида компетенцияларни шакллантиришнинг бошланғич босқичида таълим олишга ижобий мотивацияни шакллантириш муҳим ҳисобланади [5]. Юқорида таъкидланган муаммоларни бартараф этиш учун қуйидаги вазифаларни амалга ошириш тавсия этилади: талабаларнинг касбий - педагогик компетенциясини халқаро таълим дастурлари талаблари асосида шакллантириш, замонавий ўқитиш технологияларидан фойдаланиш масаласини халқаро стандартлар асосида таҳлил қилиш, улардан фойдаланиш воситасида машғулот самарадорлигига эришиш тамойилларини аниқлаш; мазкур технологиялардан фойдаланишга қаратилган шакл ва методларнинг машғулот самарадорлигини оширишдаги аҳамиятини таққослаш, талабаларнинг мустақил ишлаш қобилиятини шакллантирувчи турли методик тавсияларни ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш; - 67 ҳар бир мавзу юзасидан талабаларнинг билим ва кўникмаларини шакллантиришга қўйиладиган минимал талаблар ҳамда халқаро таълим дастурлари талаблари асосида илмий-методик тавсиялар, машғулот

ишланмаларини ишлаб чиқиш; талабаларда касбий - педагогик компетенцияларини шакллантирувчи самарали воситаларни белгилаш; машғулотда ва аудиториядан ташқари ишларда халқаро таълим дастурларига тайёргарлик кўриш учун тавсия этилган ўқув материалларидан фойдаланишга омил бўлувчи методик шарт-шароитларни яратиш, улардан фойдаланишнинг педагогик жиҳатдан мақсадга мувофиқ турли шакл, метод, воситаларни амалиётга жорий этиш; халқаро таълим дастурлари асоси ҳисобланган касбий- педагогик компетенцияларини шакллантиришнинг таълимий, ривожлантирувчи ва тарбияловчи вазифаларини ўзаро боғлиқ ҳолда амалга ошириш ва бошқалар. Халқаро таълим дастурларига мувофиқ тавсия этилаётган ҳар бир машғулот мавзусини синаш, ўқув дастурига мувофиқ келиши, талабалар ёшига мослиги, улар томонидан ўзлаштириш даражаси ва сифат кўрсаткичи, мавзуни ўзлаштиришдаги қийинчиликлар ва уларни бартараф этиш юзасидан хулосаларни ўрганиб чиқиш муҳим.

Талабаларда касбий - педагогик компетенцияларини шакллантиришда қуйидаги педагогик вазифаларни ижобий ҳал этиш мақсадга мувофиқ эканлигини англатади: талабаларнинг ёш, психологик хусусиятлари, қизиқишлари ва нимага қобилияти борлигини ўрганиш, уларда касбий- педагогик компетенцияларини халқаро таълим дастурлари талаблари асосида шаклланганлик даражасини аниқлаш ҳамда бунга имкон берувчи объектив ва субъектив омилларни ўрганиш; машғулотларни ташкил этилишини таъминлашга эътиборни қаратиш ҳамда уларни аниқ мақсадга асосланувчи лойиҳа асосида ташкил этиш, бу жараёнда талабаларнинг мустақил фаолият олиб бориши, ҳар бирининг фаоллик кўрсатишларига эришиш; самарали назорат методлар воситасида талабаларда билиш компетенциясининг шаклланганлик даражасини ўрганиб бориш ва таҳлил этиш. Ушбу вазифаларни амалга оширишда замонавий ўқитиш усуллари такомиллашади, халқаро таълим дастурларининг бош мақсади – таълим сифати ошишига эришилади. Талабаларнинг касбий - педагогик компетенцияларини халқаро таълим дастур талаблари асосида шакллантиришда мустақил таълимни ташкил этиш муҳим жараёндир.

Мустақил таълим олиш жараёнини фаоллаштириш, талабаларда мустақил таълим олишга бўлган интилиш, мавзуга оид маълумотларни мустақил тарзда ўқиб ўрганиш, мустақил таълим олиш кўникма ва малакаларини шакллантириш таълим сифати ва самарадорлигини таъминлаш меъзони бўлиб, мустақил таълим:- 68 – талабаларда шахсий, касбий, индивидуал ва ёшга оид хусусиятларни намоён қилишга; билим, кўникма ва малакаларни шакллантиришга; уларнинг ўқитиладиган фанларга оид билимларини режалаштиришга; аудиторияда ва аудиториядан ташқарида олинган билимларни тартибга солишга, шунингдек назорат қилиш учун онгли равишда фойдалана билишга; ижодий қобилиятларини ривожлантиришга асос бўлади.

Мустақил иш – бу шундай билиш ўқув фаолиятики, бунда талабанинг фикрлаш кетма-кетлиги, унинг ақлий ва амалий ҳаракатлари талабанинг ўзига боғлиқ ҳамда унинг ўзи томонидан аниқланади.

Мустақил ишлар жараёни – талаба бўш вақтини мустақил тарзда мазмунли ва самарали ташкил этиши ҳамда ўз-ўзини назорат қилиши, холис баҳолай олиши. Мустақил ишлар жараёнида талаба қизиқишлари асосида билимларини янада бойитишга эришиши мумкин. Шунинг учун мустақил ишларни ОТМ талабаларидан бошлаш муҳим ҳисобланади. Мустақил ишлар жараёнида талаба бўш вақтини режалаштиради, тартибга солади, амалга оширади, натижаларни қиёслайди, ўз-ўзини баҳолайди ва назорат қилади. Мана шу тамойиллар асосида талабанинг касбий - педагогик компетенцияси ривожланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Воровщиков, С.Г. Внутришкольная система учебно- методического сопровождения развития учебно-познавательной компетентности учащихся [Электронный ресурс].- Режим доступа: <http://www.eidos.ru/journal/2011/0627-10.htm>, свободный.
2. Галиев Т.Т. Системный подход интенсификации учебного процесса. Дисс. докт. пед. наук .- Караганда, 2002. -150 с.
3. Зеер, Э.Ф. Ключевые компетенции, определяющие качество образования / Э.Ф. Зеер // Образование в Уральском регионе: научные основы развития: тез. докл. II науч.-практ. конф. - Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.- пед. ун-та. - 2002. - Ч.2. - С. 23 - 25.
4. Хуторской, А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно образовательной парадигмы образования [Текст] / А.В. Хуторской // Народное образование. - 2003. - № 5.- С. 58-64.
5. Холиков, И. (2023). HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 43(43).
6. Холиков, И. Р. (2023). БЎЛАЖАК ОФИЦЕРЛАРДА ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ. *Наука и технологии*, 1(2).
7. Холиков, И. Р. (2022, May). Олий таълим муассасаси талабаларида педагогик компетенцияни шакллантириш. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 248-250).
8. XOLIQOV, I. (2022). HARBIY TA 'LIM FAKULTETI TALABALARIDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, 2(2).

ЎҚУВ ЖАРАЁНИГА АРАЛАШ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ

*Хайдаров Музаффар Ўрманович, Бухоро давлат педагогика институти,
харбий таълим факультети ўқитувчиси*

Аннотация: Ушбу мақолада замонавий моделларини, интеграциялашган ахборот-таълим муҳитини шакллантиришга йўналтирилган аралаш таълим технологияларидан фойдаланиш кўламини кенгайтириш ва уни педагогик таълим инновацион кластери шароитида узлуксиз йўлга қўйиш, янги педагогик ва ахборот коммуникация технологияларини жорий этишни ривожлантириш таклифлари ишлаб чиқилган.

Таянч иборалар: аралаш таълим технологиялари, интеграциялашган ахборот-таълим муҳити, инновацион фаолият, ахборот ресурслари, педагогик таълим инновацион кластери, электронлаштирилган ўқув, электрон кутубхона+лар, педагогик технологиялар, ахборот ва телекоммуникация воситалари, таълим жараёни.

Аннотация: в данной статье разработаны предложения по расширению сферы применения смешанных образовательных технологий, направленные на формирование современных моделей интегрированной информационно образовательной среды и ее постоянное создание в условиях инновационного кластера педагогического образования, по развитию внедрения новых педагогических и информационно-коммуникационных технологий. Основные фразы: смешанные образовательные технологии, интегрированная информационно-образовательная среда, инновационная деятельность, информационные ресурсы, инновационный кластер педагогического образования, электронное обучение, электронные библиотеки, педагогические технологии, информационные и телекоммуникационные средства, образовательный процесс.-

Abstract: in this article, proposals have been developed to expand the scope of application of mixed educational technologies aimed at forming modern models of an integrated information and educational environment and its constant creation in the conditions of an innovative cluster of pedagogical education, to develop the introduction of new pedagogical and information and communication technologies.

Key phrases: mixed educational technologies, integrated information and educational environment, innovative activity, information resources, innovative cluster of pedagogical education, e-learning, electronic libraries, pedagogical technologies, information and telecommunication means, educational process.

Жаҳонда юз бераётган глобаллашув ва ахборотлаштириш жараёни ҳаётнинг барча соҳаларига, шу жумладан, таълим ва ишлаб чиқариш тизимига ҳам катта таъсир кўрсатмоқда. Таълим муассасаларида таълим олишнинг анъанавий ва масофавий шакллари жорий этилиши натижасида нафақат таълим мазмуни, балки ўқитишга

ёндашувлар, фанларни ўқитиш методикаси, ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш даражаси ҳам ўзгариб бормоқда. Мустақил тараққиёт йўлидан бораётган мамлакатимизнинг узлуксиз таълим тизимини ислоҳ қилиш, ахборот-коммуникация технологияларни жорий этиш ва таълим самарадорлигини ошириш бўйича кенг қамровли ишлар олиб борилиб, комплекс дастурлар асосида масофадан ўқитиш ва компьютерлаштирилган анжуманлар ўтказиш, масофали таълим тизимларини яратиш ва уларни ўқув тарбия жараёнига жорий этиш йўлга қўйилмоқда.

Шу билан бирга, ўқув жараёнида аралаш таълим технологияларидан фойдаланиш кўламини кенгайтириш зарурияти юзага келди. Ахборот технологияларини таълим жараёнида қўллашни янги усул ва воситалар ёрдамида ташкил этиш, ўқув жараёнига аралаш таълим технологияларини жорий этиш ва методик асосларини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этмоқда. Жаҳон миқёсида олиб борилаётган тадқиқотлар ўқитишнинг замонавий моделларини, интеграциялашган ахборот-таълим муҳитини шакллантиришга йўналтирилган аралаш таълим технологияларининг педагогик лойиҳаларини ишлаб чиқиш аҳамиятга молик масалалардан бири ҳисобланади. Бу эса ўқув жараёнига мослашувчан замонавий ўқитиш тизимни яратиш методологиясини ҳамда ўқувчиларнинг билим даражасини ҳисобга олган ҳолда дифференциаллашган аралаш амалга оширувчи ўқитиш тизими таркиби ва мазмунини ишлаб чиқиш заруратини асослайди. XX асрнинг ўрталаридан, яъни инсоният жамияти янги даврга, янги юқори технологиялар, сунъий интеллект ва компьютерлар даврига кирганидан бошлаб, жамият, фан ва таълимни умумий «ахборотлаштириш» бошланди.

Айни тушунча бутун жамият ва ҳар бир инсон фаолиятининг барча соҳаларида кенг қўлланиладиган атамалардан бирига айланмоқда. Жамият ривожланишининг ҳозирги босқичи қатор ўзига хос хусусиятлари билан характерланади. Бундай хусусиятлар қаторига ақлий меҳнат аҳамиятининг ортиши, глобал миқёсдаги ахборот ресурсларидан фойдаланишга йўналганлик, ҳамкорликда илмий-тадқиқот - ишларини бажариш ҳамда ягона лойиҳа устида ишлаш учун мутахассислар ва ижодий жамоалар ўртасида тез-тез мулоқот ўрнатиш, ахборот алмашиш эҳтиёжи, фан, техника, таълимни қамраб олувчи жараёнларнинг интегратив характери ва бошқаларни киритиш мумкин. Ҳозирги замон социумининг бундай ўзига хос хусусиятлари жамиятни ахборотлаштириш жараёни билан узвий боғлиқ. Ахборот технологиялари инсон фаолиятининг барча жабҳаларида, шу жумладан таълим тизимида ҳам кенг қўлланилмоқда. Замонавий таълимни ахборот технологияларисиз тасаввур этиб бўлмайди. Чунки улар таълим жараёнида ахборотларни узатиш, қайта ишлаш, таҳлил қилиш ҳамда зарурий маълумотларга тезкор эга бўлиш имкониятини кенгайтиради. Таълим жараёнида замонавий ахборот ва телекоммуникация воситаларидан фойдаланиш борасида таълим муассасаларининг Интернет тармоғига

уланиши ва электрон алоқалар билан таъминланишига эътибор кучайди. Бундан ташқари, барча таълим муассасасалари ахборотга бўлган талаб-эҳтиёжларини ҳар томонлама қондириш учун керакли шарт-шароитларни яратиш вазифаси бажарилмоқда. Буларнинг барчаси Республика таълим муассасаларига янги педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш, жумладан, масофавий таълимни жорий этиш, электронлаштирилган форум, видеоконференциялар ўтказиш, электрон дарслик ҳамда ўқув қўлланмалар яратиш ва уларни таълим жараёнида қўллашга қаратилган тадбирлардир. Умуман, ахборот-коммуникация, компьютер технологияларининг пайдо бўлиши ва такомиллашиши жамиятнинг ахборотни тезкор ва хатосиз узатиш, қайта ишлаш, сақлашга бўлган эҳтиёжлари билан боғлиқ бўлиб, шу билан биргаликда мутахассисга янада асосли ва тўғри қарорлар қабул қилиб, атроф-муҳитдаги реал воқелик шарт-шароитларига ўз вақтида мослаша олишларига қилишга имкон беради. Жамиятдаги ўзгаришлар таълим жараёнида ҳам жиддий ўзгаришларни талаб қилади ва бугунги кунда дунёда миқёсида таълимни ахборотлаштириш орқали сифатли таълим олиш мажбурий мезони ва шартига айланиб бормоқда. Жаҳон компьютер тармоқлари, Интернет, ахборот қидириш, электрон почта, чат, видеоконференциялар, электрон дарсликлар, электрон кутубхоналар ва бошқалар барча турдаги коммуникация ва муҳим маълумотларни олишнинг тезкор методи сифатида фаол фойдаланилмоқда.

Ҳозирги вақтда жаҳон миқёсида «очик» таълим, узлуксиз ўқиш таълим тушунчаси пайдо бўлди. Бунинг асосий сабаби ўқув жараёнини тубдан ўзгартиришга шароит туғдирган янги ахборот технологияларидан фойдаланиш, хусусан, жамиятдаги ўзгаришларга тез мослашадиган ва муносабат билдирадиган тизимни яратиш ва ривожлантириш имкониятининг юзага келишидир. Шунингдек, энг биринчи даражали вазифа замонавий ва сифатли таълимга эришиш ҳисобланиб, унинг зарурий шартларидан бири – бу таълимнинг янги шакллари амалда жорий этиш, масофавий ва аралаш таълимни педагогик таълим инновацион кластери шароитида узлуксиз йўлга қўйилиш лозим.

Эндиликда бошқаришнинг фақат авторитар усулига таянилган ўқитиш, иллюстратив-тушунтириш методлари ва далилларга асосланган билимларни - 33 механик равишда ўзлаштириш натижаси замон талабларига жавоб бера олмайди. Шунинг учун таълим мазмунини танлашда ўқувчининг ақлий ривожланишини жадаллаштириш ва ўз-ўзини камол топтиришига, унда мустақил билим олиш ва олган билимларини амалда қўллаш, қонуниятларни ўрганиш жараёнида «кичик кашфиёт»лар қилиш, ҳозирги замон ахборот технологияларидан билиш воситаси сифатида кенг фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш масалаларига алоҳида эътибор қаратиш зарур. Ҳар қандай ривожланаётган мамлакатлар, шу жумладан Ўзбекистоннинг ҳам кенг миқёсдаги тараққиёти масофадан ўқитишга бўлган талабнинг йил сайин ортиб

боришига сабаб бўлмоқда. Ушбу таълим шаклининг глобаллашган дунёдаги таълимий, сиёсий ва ҳеч шубҳасиз иқтисодий аҳамиятини исботлашга асло зарурат йўқ. ЮНЕСКОнинг ахборот технологиялари бўйича институти мутахассислари билан ўтказилган тадқиқотларида кўрсатилишича, аҳолининг аксарият қисми таълимнинг турли шакллари кўллаш тарафдори ва шу асосида билим олишга қизиқиш билдиришган. Умумтаълим муассасалари ўқувчилари билан ўтказилган сўровнома натижалари уларнинг атиги 18% анъанавий таълим тизимидан мамнун эканини кўрсатди. Ўқувчиларнинг билишга бўлган эҳтиёжлари, қизиқишлари ва қобилиятларига қараб, ўқитиш мазмуни, ташкилий шакллари, методларининг хилма-хил ва ранг баранг бўлиши таълимнинг барча босқичларида муҳим аҳамият касб этади, аммо, айниқса бўлажак мутахассислар, шу жумладан, бўлажак ўқитувчиларни касбий педагогик тайёрлаш босқичида жуда долзарб ҳисобланади.

Айнан шунинг учун ҳам, таълимнинг янги, замонавий сифатига эришишнинг зарурий шarti - бу умумтаълим муассасаларида ўқитишнинг янгидан-янги шакллари жорий этиш, ўқитишнинг мослашувчан тизimini шакллантириш, узлуксиз таълим олишни таъминлашдир. Юқорида айтиб ўтганимиздек, масофавий таълим бир неча йиллардан буён анъанавий таълимнинг муқобили бўлиб келган. Бундай таълимнинг энг асосий афзаллиги шундаки, чекка ҳудудларда ҳам таълимни тақдим этиш ва ўқитиш вақтини сезиларли даражада тезлаштириш имкониятини беради. Шу билан бирга, масофавий таълим ўзига хос қатор камчиликларга ҳам эга, хусусан, ўқитувчи ва таълим олувчилар ўртасида ўзаро жонли мулоқотнинг бўлмаслиги, ҳолбуки айнаи худди шу жараёнда ўрганилаётган ўқув материалларини чуқурроқ тушунишга мақбул шароитлар яратилади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абдуллина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования. – М.: Просвещение, 1990. – 141 с.

2. Инновационная деятельность как условие профессионального развития педагога. Электронный ресурс: <https://znanio.ru/medianar/91>

3. Исаев И.Ф. и др. Становление и развитие профессионального сознания будущего педагога // Вопросы психологии. 2000. – №3. – С. 57-66. 4. Сластенин В.А. Подымова Л.С. Педагогика – инновационная деятельность. – М.: Изд-во Магистр, 1997. – 221 с.

4. Xoliqov, I. (2023). HARBIY TA'LIM YO 'NALISHI TALABALARIDA HARBIY KOMPETENSIYA TURLARI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(8), 5-8.

5. Rozikov, K. I., & Ikhtiyorovich, K. R. (2023). Training of highly competent specialists in the field of physical education and sports. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 767-770.

6. XOLIQOV, I. (2022). Features of creating educational and methodological materials for distance learning. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, 2(2).

7. XOLIQOV, I. (2022). Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida pedagogik kompetensiyani shakllantirish. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, 2(2).

8. Kholikov, I. R. (2023). Competence and its Types.

9. Холиков, И. Р. (2022). HARBIY TA'LIM FAKULTETI TALABALARIDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANISHI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.8.08.040> Xoliqov Ixtiyor Roziqovich, Buxoro davlat universiteti pedagogika instituti harbiy ta'lim fakulteti dotsenti <https://orcid.org/0000-0002-5772-9367>. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (8), 278-283.

10. XOLIQOV, I. (2022). Bo'lajak o'qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish. "ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" *международный научно-методический журнал*, 2(2).

OILANING HAYOTIY TARZI VA ZIDDIYATLARI

Ubaydulloyeva Shaxnoza O`tkirovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti, 3- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaning turmush tarzi uning hayot siklining oldini olish va unga yondashish, er va xotin o'rtasidagi o'zaro nizolar, qarindosh-urug`lar va kelin o'rtasidagi kelishmovchiliklar, tug`ulajak bolaga psixologik ta'siri bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada oilada er va xotinning bir-birini tushunishi, bola tarbiyasi, muloqotga ochiqlik va psixologik o'rganish bo'yicha maslahatlar berilgan.

Kalit so'zlar: oila, bola, ziddiyat, oila psixologiyasi, oila pedagogikasi, zamonaviy oila, etnopsixologiya, ijtimoiy psixologiya.

Annotation: In this article, the lifestyle of the family includes recommendations on the prevention and approach of its life cycle, mutual conflicts between husband and wife, disagreements between relatives and bride, psychological impact on the child to be born. This article provides advice on the family's understanding of each other by husband and wife, child tarbiai, openness to communication, and psychological learning.

Keywords: family, child, conflict, Family Psychology, family pedagogy, Modern Family, ethnopsychology, Social.

Аннотация: Образ жизни семьи в данной статье содержит рекомендации по профилактике и подходу к ее жизненному циклу, взаимным конфликтам между супругами, разногласиям между родственниками и невестой, психологическому воздействию на будущего ребенка. В этой статье даны советы по пониманию супругами друг друга в семье, воспитанию детей, открытости к общению и психологическому обучению.

Ключевые слова: семья, ребенок, конфликт, семейная психология, семейная педагогика, современная семья, этнопсихология, социальная психология.

Kirish.

Oila qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog`langan shaxslardan iborat ijtimoiy guruhdir. Ko`p jamiyatlarda oila bolalar ijtimoiylashuvi uchun asosiy institut vazifasini o`taydi. Antropologlar oilalarni matrilokal (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo`lsa, nuklear oila deyiladi) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tiplarga ajratishadi.

Oila — nikoh yoki tug`ishganlikka asoslangan kichik guruhdir. Uning a`zolari ro`zg`orining birligi, o`zaro yordami va ma`naviy mas`uliyati bilan bir-biriga bog`langandir. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari—inson zotini davom ettirishdan, bolalarga ta`lim

va tarbiya berish, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy- mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni tiklaydi.

Olimlar oiladagi hayot sikli ikki yoshning uzoq muddatga ahdu-paymon qilib nikohga kirishga qaror qilgan onlaridanoq boshlanishini ta'kidlaydilar. Boshqa mualliflarning fikricha, oilaning boshlang'ich nuqtasi ikki shaxs rasman nikohga kirgan vaqt, ko'pchilikning guvohligida o'tkazilgan tantanalar bilan boshlanadi.

Konflikt (lot. conflictus — ixtilof, to'qnashish) — 1) qarshi tomonlar, fikrlar, kuchlar to'qnashuvidir. R.Kapenberg ta'kidlashicha, ba'zan oilaviy munosabatlarda favqulotda paydo bo'ladigan hodisalar ta'sirida ziddiyatlar paydo bo'ladi. Bu odatda kutilmaganda ro'y beradigan holatlarning oqibati bo'lib, oila a'zolari buni kutmaydilar. Masalan, er-xotinlarlardan birining xiyonati va uning oshkor bo'lib qolishi, o'g'ilning noqobil bo'lib giyohvand moddalar iste'mol qilishini kattalar bilib qolishlari, oila a'zolaridan birining boshqa jinoyat yo'liga kirib qolishi, falokatlar orqali nogiron bo'lib qolishi va shunga o'xshashlar oilaviy munosabatlarning to'satdan o'zgarishi orqali munosabatlar tugashiga olib kelishi mumkin. Va buni qayta ko'rib chiqish uchun ancha vaqt ketib qoladi. Bunda ham oiladagi kattalarning donoligi, oqilligi, mahallaning hamjihatligi hisobidan oila qayta tiklashi mumkin.

Oila turmush qurgan paytdan boshlab, birinchi farzand tug'ilgunga qadar yosh oila hisoblanadi. Bugungi tez o'zgaruvchan dunyoda er-xotin bo'lish unchalik oson emas. Chunki zamon o'zgarganidan boshlab insonlar ham o'zgarmoqda. Yangi ijtimoiy voqeliklar, jumladan, ayollar rolining o'zgarishi va kontratseptiv vositalarning keng qo'llanilishi kech nikohlar sonining ko'payishiga olib keldi.

O'z oilasida mustaqillikka erisha olmagan turmush o'rtoqlar katta oilaga qaram bo'lib qolishlari mumkin. Bowen ta'kidlashicha, turmush o'rtog'i kuchli hissiy tajribalardan qochish uchun ota-ona oilasidan uzoqlashishga intiladi, ammo yaqinlik uchun qondirilmagan ehtiyoj nikoh munosabatlarini kuchayishiga majbur qiladi. Nikoh munosabatlaridagi keskinlik ma'lum darajaga yetganda, turmush o'rtog'i yana hissiy jihatdan chekinishi mumkin. Shunday qilib, oilaning yaqinlikka bo'lgan ehtiyoji va turmush o'rtoqlardan birining ota-ona oilasi bilan yaqin munosabatlarining hal qilinmagan muammosi hissiy tanaffusga sabab bo'lishi mumkin.

Oilaning birinchi asosiy vazifasi er-xotinning oilada bir-birini tushunishi, hurmat qilishi, sevilib- sevilinishi, bolalariga tarbiya berib oila tizim faoliyatini yuritishidir. Turmush

o‘rtoqlar kengaytirilgan oila yangi munosabatlar o‘rnatishlari kerak. Ularning o‘g‘il va qiz roli ikkinchi darajali bo‘lib, er va xotinning roliga o‘tib ketishi kerak. Er-xotinning yaqin va mustaqil munosabatlarga ega bo‘lishi, qobiliyati ko‘pincha turmush o‘rtoqlarning har biri ota-ona oilasida mustaqil shaxs bo‘lishga muvaffaq bo‘lish darajasi bilan belgilanadi. Ota-ona oilasida avtonomiya topa olmaganlar, aksincha, hissiy sovuqqonlik bilan ajralib turadi va ular o‘zlarining shaxsiy manfaatlarida ustunlik qiladigan juftlik munosabatlarini shakllantirishga moyildirlar. Er-xotinni birlashib, yashashdan oldin har bir inson mustaqil “men”ga aylanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rizouddin ibn Faxriddin, Oila, T., 1991.
2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=276>
4. Hasanboeva O. va boshqalar. Oila pedagogikasi . - T., 2007 y.
5. Hoshimov K., Ochilv S.. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. –T., 1995-y.

JADID MA'RIFATPARVARLARI ILMIY-PEDAGOGIK MEROSINING O'QUVCHILAR MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI BOYITISHDAGI AHAMIYATI

Umarova Sitara Muxlisovna, Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

Nosirova Yulduz O'ktam qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston jadid ma'rifatparvarlari ilmiy-pedagogik qarashlarining bugungi davr yoshlari ta'lim-tarbiyasi jarayonidagi ahamiyati o'rganilgan, ularning zamonaviy pedagogika bilan bog'liqlik jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jadid, ta'lim, islohot, maktab, "usuli savtiya" dars, mashg'ulot, zamonaviy fanlar.

ЗНАЧЕНИЕ НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ-ДЖАДИДОВ В ОБОГАЩЕНИИ ДУХОВНО- ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ

Аннотация: В данной статье исследуется значение научно-педагогических взглядов джадидских просветителей Туркестана в образовательно-воспитательном процессе молодежи сегодняшнего периода, анализируются аспекты их связи с современной педагогикой.

Ключевые слова: джадид, образование, реформа, "усули савтия", школа, урок, обучение, современные науки.

THE IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL HERITAGE OF THE JADID ENLIGHTENERS IN ENRICHING THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS

Annotation: this article explores the importance of the scientific and pedagogical views of the Jadid enlightenment of Turkestan in the process of education and education of young people of today's era, analyzing aspects of their connection with modern pedagogy.

Key words: jadid, education, reform, school, "usuli savtiya", lesson, training, modern sciences

Bugungi kunda respublikada ta'lim sohasini isloh qilish deganda faqatgina rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimidan andoza olish olish orqali ta'lim samaradorligiga erishish mumkin deb qaralmoqda. Aslida o'tmishimizga nazar solsak, jadid muttafakirlarining pedagogik qarashlari, ularning ma'rifatparvarlik faoliyatlari bugungi ta'lim sohasini chinakam yangicha isloh etish uchun muhim vazifasini bajara oladigan dasturilamal hisoblanadi. Prezident Sh.Sh. Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabrda o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida jadid bobolarimizning milliy taraqqiyotni har tomonlama jadallashtirish, ziyoli va ijodkorlarni birlashtirishga

daxldor tashabbuslari qatorida “Jadid” gazetasini ta’sis etish g’oyasini qo’llab-quvvatladi hamda ushbu nashrni yangi yilning birinchi kunida chop etish taklifini ilgari surdi [5]. Mazkur gazetani tashkil etishdan maqsad jadid marifatparvarining boy ilmiy merosini yanada chuqur o’rganish va uning ilmiy mohiyatini o’quvchi-yoshlar ongiga singdirish.

Zamonaviy pedagoglar oldiga qo’yilgan talablardan biri ham ayni shu vaziyatni yengil va sodda usullar orqali olib borishdir. “Moziyga qarab ish ko’rmoq xayrlidir”, - degan edi jadid ma’rifatparvarlaridan biri Abdulla Qodiriy[1]. Darhaqiqat, zamonaviy pedagogika yuz yillar ilgari shakllangan jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim berish g’oyalarida va ta’lim jarayonlarida o’z aksini topgan edi. Jadid ma’rifatparvarlari yuksalib borayotgan dunyoda qanday ilmiy-pedagogik qarashlarni ilgari surgan edilar va ularning bu qarashlari hozirgi ta’lim jarayoniga qay darajada mos? Jadid ma’rifatparvarlarining ilmiy-pedagogik hayoti bu savollarga javob bera oladi.

Jadid ma’rifatparvarlarining ilmiy-pedagogik qarashlari zamonaviy o’quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida muhim manba va uslubiy asos bo’lib xizmat qilishi mumkin. Ularning ilgari surgan g’oyalari milliy o’zlikni anglash, mustahkam axloqiy tamoyillarni shakllantirish va ma’naviy kamolotga erishishda zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimi uchun katta imkoniyatlarni ochib beradi.

1. Milliy qadriyatlar va ma’naviyatni shakllantirish.

Jadidlar asarlarida milliy o’zlik, vatanparvarlik va insonparvarlik tushunchalari alohida o’rin tutadi. Bu qarashlar zamonaviy o’quvchilarni:

- o’z xalqining tarixini, madaniyatini va qadriyatlarini sevishtirishga undaydi.

- o’quvchilar orasida vatanga bo’lgan muhabbat va milliy g’ururni shakllantiradi.

Masalan, Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir.” Bu fikr zamonaviy ta’lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni o’quvchilarga singdirishda muhimdir.

2. Axloqiy tamoyillarni shakllantirish.

Jadidlarning ilmiy-pedagogik qarashlarida axloq masalalari asosiy o’rin tutgan. Ular yosh avlodda quyidagi sifatlarni rivojlantirishni targ’ib qilgan: halollik, odillik, samimiylilik, hurmat, mehr-muhabbat va birdamlik. Bu qadriyatlarni zamonaviy ta’lim-tarbiyada sinfda olib boriladigan darslar va tarbiyaviy tadbirlar orqali amaliyotga joriy etish mumkin.

3. Inson huquqlari va gender tengligi masalalari.

Jadidlar qizlarni o’qitishga va jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirishga katta e’tibor qaratgan. Bugungi kunda bu tamoyillar:

Qiz va o’g’il bolalarga teng sharoit yaratish. Inson huquqlari, ayniqsa, teng huquqlilikni o’quvchilar ongiga singdirishda qo’llanilishi mumkin.

4. Fan va ta’limni uyg’unlashtirish.

Jadidlar ilm-fanni ta’limning asosiy qismi sifatida ko’rgan. Zamonaviy ta’limda bu qarashlarni: aniq fanlar, texnologiya va madaniyatni uyg’unlashtirgan holda joriy etish.

Fanlarning zamonaviy va milliy qirralarini o'quvchilarga tushuntirish orqali amalga oshirish mumkin.

5. Tarbiyaning ommaviy omillari.

Jadidlar ta'lim va tarbiya faqat maktabda emas, balki oilada va jamiyatda ham bir xil ahamiyatga ega deb hisoblashgan. Bugungi kunda bu tamoyillarni: Ota-onalarni o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida faol ishtirok etishga jalb qilish. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali sog'lom ma'naviy muhitni targ'ib qilishda foydalanish mumkin.

6. O'quv dasturlarini boyitish.

Jadidlar darslik va o'quv dasturlarida milliy g'oyalarni singdirgan. Zamonaviy o'quv dasturlarida: Ularning "Turkiy Guliston yoki axloq", "Oila" kabi asarlaridan foydalangan holda ma'naviy-axloqiy mavzularni kiritish. Milliy va global qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali yosh avlodning ma'naviy tarbiyasini boyitish mumkin.

7. O'quvchilarni faollashtirish va liderlik sifatlarini rivojlantirish

Jadidlar yoshlarni jamiyatning faol a'zosi sifatida ko'rgan va ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratgan. Bugungi kunda bu: O'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodkorligini rivojlantirish. Liderlik sifatlarini shakllantirish uchun jamoaviy loyihalar va tadbirlarni tashkil qilish orqali qo'llanilishi mumkin.

Jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy-pedagogik qarashlari O'zbekistonda va Markaziy Osiyoda ta'lim va tarbiyani isloh qilishga qaratilgan o'ziga xos pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lgan. Jadidlar asosan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, jamiyatda savodsizlikni tugatish, zamonaviy ta'lim tizimini yaratish, millatni rivojlantirish va madaniy yuksalishga erishish maqsadida faoliyat olib borishgan.

Muammoning asosiy jihatlari:

1. An'anaviy ta'limga tanqidiy yondashuv:

Jadidlar eski maktab va madrasa tizimini zamon talablariga javob bermaydigan deb hisoblashgan. Ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishni, ya'ni dunyoviy fanlarni (matematika, fizika, geografiya, tabiiy fanlar) kiritishni taklif qilishgan.

2. Yangi usul maktablari:

Jadidlarning asosiy yutug'i – yangi usuldagi maktablarni tashkil etish bo'lib, bunda turkcha, ruscha va arabcha alifboni birlashtirgan usulda ta'lim berilgan. O'qitish usullarini soddalashtirish, bolalarga savod o'rgatishni tezlashtirishga katta e'tibor qaratilgan.

3. O'qituvchi va ta'limning ahamiyati:

Jadidlar fikricha, o'qituvchi faqatgina dars beruvchi emas, balki ma'rifat tarqatuvchi va jamiyatni uyg'otuvchi shaxs bo'lishi kerak. Jadidlar o'z zamonlarining ilg'or pedagogik g'oyalarini milliy an'analar bilan uyg'unlashtirishga harakat qilishgan:

4. Ta'lim mazmunining boyitilishi:

Tarix, adabiyot, geografiya kabi fanlarni milliy o'zlikni anglash vositasi sifatida ilgari surishgan. Fanlararo uyg'unlikni yaratishga intilganlar.

5. Gender tengligi masalasi:

Jadidlar qizlarni o'qitishga alohida e'tibor qaratib, ayollarni jamiyat rivojlanishining muhim qismi sifatida ko'rishgan. Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdurauf Fitrat kabi jadidlar ayollar uchun maxsus maktablar tashkil qilishgan.

6. Boshlang'ich pedagogik muammolar:

Moliyaviy yetishmovchilik, xalqning qarshilik ko'rsatishi, savodsizlik va yangi usullarni qabul qilmaslik kabi to'siqlar mavjud edi.

Jadidlarning ta'lim-tarbiya sohasidagi asarlari: Abdulla Avloniy: "Turkiy Guliston yoki axloq" – pedagogikaning nazariy va amaliy masalalari.

Fitrat: "Oila" – oilaviy tarbiya va uning ahamiyati.

Munavvarqori: Maktab uchun darslik va qo'llanmalar.

XXI asr shiddat bilan rivojlanib ketayotgan texnologiyalar asrida zamonaviy o'quvchilarning ta'limi bilan bir qatorda tarbiyasiga ham alohida e'tibor berishimizni talab qilyapdi. Xo'sh, buni qanday amalga oshiramiz? Albatta o'tmishga murojaat qilgan holda. Zero o'tmishsiz kelajakni tasavvur qilib bolmaydi. Jadid bobolarimizning asarlarini o'qishimiz, ularning ilmiy-pedagogik qarashlarini har jihatdan tahlil qilib chiqishimiz zarur[3]. Jumladan, Abdurauf Fitrat ham o'zining tarbiya borasidagi fikr-mulohazalari bilan alohida o'rin tutadi. Uning "Najot yo'li" (Rahbari najot), "Oila yoki oila boshqarish tartiblari", "Hind sayyohining qissasi" asarlarida tarbiya masalalariga oid g'oyalar keng o'rin olgan. Jadid marifatparvarlarimizdan yana biri bu Mahmudxo'ja Behbudiydir. U ham tarbiya xususida juda ko'p fikr-mulohazalar bildirgan. U o'zining qator asarlari va maqolalarida tarbiya muammolarini ko'taradi. "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" deb nomlangan pyesasi buning yorqin misolidir. Ushbu drammda marifatsizlik, jaholat, axloqsizlik hamda farzand tarbiyasiga nisbatan noto'g'ri yondashuv qanday og'ir oqibatlariga olib kelishi haqida bayon qilingan. Mahmudxo'ja Behbudiy ta'kidlaganidek, "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobiga tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo'lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarining soyasida vujudga keldi" [2]. Shu sababli ham jadid mutafakkirlari sog'lom farzandni tarbiyalash uni ilmiy, ma'rifatli qilish uchun kelajakda xalqini yuksaltiradigan farzand bo'lib yetishishlari uchun avvalo, ota-onalarni ilm-marifatli bo'lishga chorlaganlar. Bu xususida Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta'lim-tarbiyasida ota-onalarning ahamiyati yuqori o'rin tutishini ta'kidlaganlar. Bu uchun esa ota-onalar avvalo, farzandlarini maktab va madralarda ta'lim olish uchun tayyorlab berishlari kerak bolgan. Shundan songina, yoshlar davlat oliy oquv yurtlarida ta'lim olishlarini uqtirganlar. Shunday qilib, bu sayi harakatlarning asosi bo'lgan

jadidlik faoliyatining tepasida Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, So‘fizoda, Xamza, Sadridin Ayniy, Tavallo singari xalqimizning onlab fidoiy farzandlari, shoiru adiblari, davlat va siyosat arboblari turgan edilar [4]. Ular xalqni marifatlashtirish uchun Turkiston o‘lkasida ko‘plab ishlarni olib borganlar.

Jadidlarning pedagogik qarashlari bugungi kunda O‘zbekistonda zamonaviy ta’limning asosini tashkil etadi. Bugungi kunda ham milliy g‘oya va ma’naviyat tarbiyasini rivojlantirishda jadidlarning o‘z vaqtida ko‘targan masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Shunday qilib, jadidlarning ilmiy-pedagogik qarashlari ta’lim-tarbiya sohasida keng ko‘lamli islohotlarning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lgan va ular millatni uyg‘otish yo‘lida muhim ma’naviy poydevor yaratgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jadidlarning ilmiy-pedagogik qarashlari bugungi ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish uchun boy imkoniyatlarni taqdim etadi. Ularning merosini ta’lim jarayoniga tatbiq qilish o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki ma’naviy yetuk va jamiyatga foydali shaxslar sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Bu qarashlar milliy o‘zlikni saqlash bilan birga, globallashuv davrida millatning kuchli ma’naviy poydevorini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dolimov U. Jadid pedagogikasi. Monografiya. Toshkent – 2007.
2. Xo‘jayev B. Jadid pedagogikasi. “Jadid” gazetasi. 15-son. 2024.
3. Nosirova Y. Jadid marifatparvarlarining ilmiy-pedagogik qarashlari - zamonaviy oquvchilarning manaviy-axloqiy qarashlarini tarbiyalash vositasi. Buxoro tarixi masalalari mavzusida Respublika miqyosidag ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Buxoro.:2024.
4. Nosirova Y. Jadid ma’rifatparvarlarining ilmiy-pedagogik qarashlari pedagogik muammo sifatida. “Oliy ta’lim sifati – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili” respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Buxoro.:2024.
5. <https://fledu.uz/uz/2024-yilning-ilk-kunida-jadid-gazetasi>

O'QUV JARAYONIDA "FLIPPED CLASSROOM" (TESKASI SINFI) TEXNOLOGIYASINING SAMARADORLIGI

Xamdamova Gulshan Xamrayevna, Buxoro davlat pedagogika instituti,
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida dotsent, f.f.f.d (PhD)
Abdullayeva Nozima Tuymurodovna, Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada flipped classroom (teskari sinf) texnologiyasining o'quv jarayonida o'rni va ahamiyati, ta'lim jarayonida ijodiy muhit yaratish, o'quvchi faolligini oshirish orqali ta'lim samaradorligiga erishish haqida fikr yuritiladi.

Tayanch tushunchalar: Flipped classroom, individuallashtirilgan o'qitish, kreativ fikrlash, texnologik resurslar, interaktiv platforma.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2019 yildagi 29 apreldagi PF-5712 sonli "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoniga binoan O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish kabi chora-tadbirlar belgilangan.

Mazkur meyoriy hujjatlar doirasida Respublika umumta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashni yangi usul va vositalar yordamida tashkil etish, masofadan turib o'qitish va kompyuterlashtirilgan anjumanlar o'tkazishga erishish, raqamli ta'lim platformalarini yaratish va ularni o'quv-tarbiya jarayonida qo'llashga qaratilgan tadbirlar, ta'limni isloh qilish bo'yicha nufuzli loyihalar, ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim berishning yangi modeli sifatida e'tirof etilayotgan "Flipped classroom" (Teskari sinf) modeli tadqiqotchi -ekspertlar tomonidan samarali deb ta'kidlanmoqda.

Flipped classroom (Teskari sinf) metodi – bu o'qitishda sinfdagi odatiy tartib va jarayonlarni o'zgartirgan holda darsni tashkil etish usulidir. Bu metod ta'lim jarayonida an'anaviy dars va uy vazifalarining o'rinlarini almashtirish usuli bo'lib, uning bir qancha

afzalliklari mavjud. Bu metodni ba'zan "flipped classroom" yoki "teskari o'qitish" deb ham atashadi. An'anaviy o'qitish usulida dars davomida yangi mavzular o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi, uyga esa mashqlar va mustahkamlash uchun topshiriqlar beriladi. Ammo, flipped classroom (teskari sinf) metodida jarayon teskari amalga oshiriladi. O'quvchilar uyda yangi mavzuni mustaqil ravishda o'rganishadi. Bu jarayon uchun video darslar, o'qituvchi tayyorlagan materiallar yoki onlayn resurslardan samarali foydalanishadi. Sinfda o'quvchilar o'qituvchi bilan birga amaliy mashqlar bajarishadi, muammolarni hal qilish, muhokama va guruh ishlari amalga oshiriladi. Shu orqali o'qituvchi o'quvchilarning qiyinchiliklarini tezda aniqlab, ularga yordam bera oladi.

Mazkur metodning rivojlanishi yo'lida Avstriyaning Seyzburg universiteti professori Djozef Zambech, tadqiqotchilar Viola Geyzer, I Deybl, AQSHning Denver universiteti professori Liza Altemuller, tadqiqotchi S.Linkvist, Rossiyalik tadqiqotchi Darya Dobritsa, AKT larni Oliy ta'lim o'quv jarayonida ommalashtirish borasida Soliha Allayarova kabi olimlarimiz samarali ishlarni amalga oshirganlar.

Fan -texnika taraqqiyotidagi yutuqlar, kundalik turmush tarzimizga turli xil gadjetlarning kirib kelishi bugungi yoshlar uchun an'anaviy darslarni zerikarli bo'lib qolishiga sabab bo'lib qoldi desak xato bo'lmaydi. So'nggi 20 yilda ijtimoiy hayotning barcha sohalari kabi ta'lim tizimida ham innovatsiyalar keng joriy qilina boshladi. Flipped classroom g'oyasi ham o'qitishning ana shunday innovatsion metodi sifatida amaliyotga joriy qilindi, va unda bir qator afzalliklar aniqlandi.

Flipped Classroom (Teskari sinf) metodining afzalliklari qo'yidagilardan iborat:
O'quvchilar uyda yangi mavzuni o'zlariga qulay sur'atda o'rganishlari mumkin.

Har bir o'quvchi mavzuni o'z tushunganicha o'rganishi va o'ziga qulay bo'lgan vaqtda videolar yoki materiallarni qayta ko'rishi mumkin. Bu usul o'quvchilarga chuqur tushunish imkoniyatini beradi, chunki ular qiyinroq qismlarni qayta-qayta o'qib yoki tomosha qilishlari mumkin.

Bundan tashqari ushbu metod qiyinchiliklarni tez hal qilish imkonini beradi. Sinfda o'qituvchi bilan mashg'ulotlar davomida o'quvchilar tushunmagan mavzulari yoki

qiyinchiliklarini osonroq hal qilishi mumkin.

Darsda yangi mavzuni tushuntirishga ko'p vaqt sarflanmaganligi sababli, ko'proq amaliy mashqlar va muhokamalar o'tkazish imkoniyati tug'iladi. Buning o'rniga, o'quvchilar sinfda o'zaro hamkorlikda mashqlar bajarishadi, muammolarni hal qilishadi, loyiha va muhokamalarda qatnashishadi. Amaliy bilimlarni real muammolarga qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar, mashg'ulotlar va muhokama orqali o'quvchilar mavzuni chuqurroq o'zlashtiradilar va olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Teskari sinf texnologiyasi orqali o'quvchilar darsga tayyorgarlik ko'rish uchun videodarslar, onlayn resurslar, interaktiv platformalar kabi turli texnologiyalardan foydalanishadi. Bu ularning texnologik savodxonligini oshiradi. Kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Teskari sinf metodida o'quvchilar mustaqil o'rganishga majbur bo'lishadi, bu esa ularning mas'uliyatini va faolligini oshiradi. O'quvchilar o'zlari uchun yangi bilimlarni mustaqil o'rganishga kirishadilar va keyin darsda o'zlarining bilimlarini amalda qo'llaydilar. Teskari sinf darsida o'quvchilar an'anaviy darsdan ko'ra ko'proq mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilishga yo'naltiriladi. Ular sinfda o'zlarining g'oyalari bilan bo'lishishlari va masalalarni yechishda ijodkorlikni namoyon etishlari mumkin.

Guruhda ishlash va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda ham bu metod orqali samarali natijaga erishish mumkin. Teskari sinf texnologiyasida dars vaqtining katta qismi guruh ishlari va muhokamalarga ajratiladi. Bu o'quvchilarning bir-birlari bilan hamkorlikda ishlash, muloqot qilish va jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Afzalliklari bilan bir qatorda teskari sinf metodining bir necha kamchiliklarini ham kuzatish mumkin. Bu metod muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'quvchilar uyda topshiriqlarni muntazam bajarishlari kerak.

Ko'pincha, yangi mavzularni o'rganish uchun internet va texnologik resurslar talab qilinadi, bu esa barcha o'quvchilar uchun imkoniyatlar teng bo'lmasligi mumkin.

Ta'lim tizimi yillar davomida rivojlanib bormoqda va u doimo o'zgarib turadi. Hozirgi kundagi ta'limning maqsadi talabalarni nazariyalar va mavzular bilan tanishtirish emas, balki ularning shaxsiy va kasbiy ko'nikmalarini ham rivojlantirishdan iboratdir. So'nggi paytlarda

bu tushuncha o'qituvchilar orasida katta qiziqish uyg'otmoqda. Flipped classroom metodining an'anaviy sinf usulidan farqi shundaki, bu usulda o'qituvchidan ko'ra o'quvchining ishtiroki ustun hisoblanadi. Mashg'ulot jarayonida o'qituvchidan talabalarni doimiy ravishda kuzatib borish va ularga real vaqt rejimida fikr-mulohazalarni taqdim etishni talab qiladi.

Flipped Classroom (teskari sinf) an'anaviy guruhli o'qitishdan ko'ra individual va faol o'rganishga yo'naltirilgan interaktiv va aralash ta'lim usulidir. Talabalar uyda yangi mazmun va tushunchalar bilan tanishadilar va maktabda bo'lganlarida ularni individual ravishda mashq qiladilar.

Odatda, bu tushunchalar o'quvchilar uyda tomosha qilishlari mumkin bo'lgan oldindan yozib olingan videolar bilan tanishtiriladi va ular maktabga mavzular ustida ishlash uchun bir oz boshlang'ich bilimga ega bo'lishadi.

Xulosa: Teskari sinf texnologiyasi an'anaviy dars jarayonini o'zgartirib, o'quvchilarning faolligi, mas'uliyati va mustaqilligini oshirishga yo'naltirilgan. Bu metod o'quvchilarni chuqurroq o'rganishga, amaliy mashg'ulotlarda faol qatnashishga va o'z ustida ishlashga rag'batlantiradi. Shu bilan birga, texnologiyalardan samarali foydalanish va o'qituvchining o'quvchilar ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishiga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиqlаш тўғрисида ПҚ-5847. 08.20.2019.
<https://lex.uz/docs/4545884>
2. Altemueller, L., & Lindquist, C. (2017). Flipped classroom instruction for inclusive learning. *British Journal of Special Education*, 44(3), 341-358. doi: 10.1111/1467-8578.12177
3. Allayarova Soliha Narzulloyevna. (2021). Talabalarning tadqiqot faoliyatiga yo'naltrishning dolzarb masalalari *Современное образование (Узбекистан)*, (5 (102)), 17-25.
4. Allayarova Soliha Narzulloyevna. (2020). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari oliy

ta'lim sifati va samaradorligini oshirish omili (Ўзбекистан), (4 (89)), 10-19.

5. Berdiyeva Iroda Xudoyshukurovna: O'qitishning Flipped classroom modeli, mazmuni va qollash tartibi va imkoniyatlari. 2021

FILOLOGIYA FANLARI

O'ZBEK XALQ O'YINLARINING BOY MA'NAVİY MEROSIMIZ SIFATIDA O'ZIGA XOSLIGI

Safarova Nigora Oxunjonovna, filologiya fanlari nomzodi, professor Buxoro davlat pedagogika instituti, nigor.safarova@mail.ru

O'ktamova Sabina Azizjon qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti, uktamovasabina29@gmail.com

УНИКАЛЬНОСТЬ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ИГР КАК НАШЕ БОГАТОЕ ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ

Сафарова Нигора Охунжоновна, кандидат филологических наук, профессор Бухарский государственный педагогический институт, nigor.safarova@mail.ru

Уктамова Сабина Азизжоновна учится на 1 курсе аспирантуры Бухарского государственного педагогического института. uktamovasabina29@gmail.com

THE UNIQUENESS OF UZBEK FOLK GAMES AS OUR RICH SPIRITUAL HERITAGE

Safarova Nigora Okhunjonovna candidate philology of sciences, professor Bukhara State pedagogical institute, nigor.safarova@mail.ru

Oktamova Sabina Azizjonovna, a 1st-year graduate student at the Bukhara State Pedagogical Institute, uktamovasabina29@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada xalq o'yinlarining bolalar hayotida tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi. O'zbek xalq o'yinlari tarixi, uni to'plash, ularni o'rgangan va to'plagan olimlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'yin, folklor, bolalar o'yinlari, janr, syujet, personaj.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается роль народных игр в жизни детей. Представлена история узбекских народных игр, их коллекция, а также ученые, которые их изучали и собирали.

Ключевые слова: игра, фольклор, детские игры, жанр, сюжет, персонаж.

ANNATATION: This article discusses the role of folk games in children's lives. The history of Uzbek folk games, their collection, and the scientists who studied and collected them are presented.

Key words: game, folklore, children's games, genre, plot, character.

O'zbek folklorining boshqa janrlari kabi bolalarning an'anaviy o'yinlari ham o'ziga xos tarixiy-genetik ildizlarga va badiiy tadrijga ega. Ularning vujudga kelishida qadimgi insonlarning ibtidoiy tasavvur-tushunchalari, dastlabki mifologik qarashlari, diniy e'tiqodlari,

turli ramziy xatti-harakatlari, turmush tarzi, urf-odatlar, marosimlari etarli darajada ta'sir ko'rsatgan. O'yinlarga aniq va haqqoniy voqea-hodisalar, ajdodlarimizning turmush tarzi, kasb-kori, qiziqish va intilishlari, harbiy bilimlariyu tajribasiga aloqador voqeliklar, an'anaviy urf-odatlar asos bo'lgan. Shuning uchun voqebandlik o'yinlarning eng muhim xususiyati sanaladi. O'yinlardagi harakat real voqealar bilan aloqador bo'lib, o'zida qadimiy tushuncha, urf-odat va marosimlarning izlarini tashiydi. O'yindagi har bir voqea hayotiy asosga ega uydirmadir. Shuning uchun ular bekorchi, ermak uchun bajariladigan harakatlar emas, balki ijtimoiy-tarixiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega harakatlar yig'indisidir. O'yinlar syujet asosini tashkil etgan voqea-hodisalarning realligini, qadimiyligini ko'rsatuvchi belgilar bir talay. Masalan, o'yinlarda hamisha g'olib kelishga intilish, o'yinning g'alaba bilan yakun topishi, bolalarning jismoniy yoki aqliy kuchining sinovdan o'tkazilishi, odatda, epik asarlarga xos an'anaviy motivlar bo'lib, ular o'yin janrining ham qadimiyligidan va epik an'ana doirasida yaratilishidan dalolat berib turadi.

Ayrim o'yinlarda ishtirok etuvchi personajlarning kim ekani, ismi, kasb-kori, amali yoki laqabi ma'lum qilinadiki, bundan ularning real zaminga ega ekanligi ko'rinib turadi. Masalan, "Ninachi", "Tursun xola", "Sotuvchi va xaridor", "Podsho va vazir", "Bo'ri va cho'pon" kabi o'yinlar bunga misol bo'ladi. Yoki yana bir qator o'yinlarda cho'pon, kulol, sotuvchi, o'qituvchi kabi real hayotning faol kishilari, mehnat ahli obrazi uchraydi. Bularning barchasi o'yinlar syujet asosini tashkil etgan voqea-hodisalarning realligini ko'rsatib turadi. Biroq o'yinlarning kattagina qismi o'tmishda yaratilgan bo'lib, ularning kelib chiqishiga qadimgi ajdodlarimizning animistik, totemistik va turli magik tasavvur-tushunchalari, e'tiqodiy qarashlari zamin bo'lgan. Bu esa o'yinlarning yo nomida, yo tarkibida uchraydigan ayrim motivlarda sezilib turadi. Aytaylik, bolalar o'rtasida keng tarqalgan "Oq terakmi, ko'k terak" o'yini asosida ibtidoiy insonlarning oq va ko'k ranglar haqidagi mifologik qarashlari bilan bir qatorda daraxtlar topinchiga daxldor totemistik tasavvur - tushunchalari ham yotadi.

Ba'zi xalq o'yinlarida qadimgi insonlarning hayvonlarga nisbatan e'tiqodiy munosabatlari, ayrim hayvonlarni kult yoki totem sifatida ardoqlashlari bilan bog'liq tasavvur-tushunchalari yaxshigina saqlanib qolgan. Jumladan, hayvonlar haqidagi o'yinlarning kelib chiqishiga ibtidoiy kishilarning totem va kullarga sig'inib o'tkazgan qadimiy marosimlari hamda hayvonlar haqidagi ertaklar syujeti yetarli ta'sir ko'rsatgani shubhasiz. Chunki hayvonlar haqidagi o'yinlarning aksariyati to'ppadan-to'g'ri totem hayvon (yoki boshqa hayvon) nomi bilan atab kelinadi. Masalan, o'zbek bolalar o'yini "Ot", litva bolalar o'yini "Vilkelis" ("Bo'ri bolasi"), dog'istonlik bolalar o'yini "So'qir ayiq", komi bolalar o'yini "Suvt, kor!" ("Bug'u, to'xta") kabilar shular jumlasidandir. Bu o'yinlarda totem-hayvon asosiy personaj vazifasini bajargan. Bolalar o'yin jarayonida shu hayvon qiyofasiga kirib, unga taqlidan harakat qiladilar.

Ajdodlarimiz bo'ri va ot totemi haqidagi qarashlarga ishonib kelganliklari tarixiy va ilmiy manbalar orqali ma'lum. Qizig'i shundaki, bo'ri va ot haqidagi totemistik tasavvurlar o'yinlar syujetida ham sezilarli darajada saqlanib qolgan. Ot va bo'ri obrazi ishtirokida yaratilgan o'yinlar bir talay. Shunday o'yinlardan biri o'g'il bolalar repertuarida uchraydigan "Ot" o'yinidir. Qadimdan xalqimiz o'rtasida ot o'ynasa qurg'oqchilik yuz bermaydi. Hosil mo'l bo'ladi. Yil barakali keladi degan ishonch keng tarqalgan.

Ot o'yini bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlar hozirgacha saqlanib kelmoqda. Masalan, o'g'il bolani beshikka bog'lash yoxud sunnat qilish to'yida, albatta, aspakbozni taklif qilish an'anasi bor. Bunda biror kattaroq kishi yoki 10-15 yoshlardagi o'smir usti rangli va bezakli yopinchikli yog'och otni belidan pastki qismiga kiyib olib, ot kabi sakrab-sakrab turli muqomlar bilan o'yin ko'rsatadi. Yig'ilganlar esa "bizni ham shunday shodiyonaga etkazsin" degan yaxshi niyat bilan aspakbozga xayru sadaqa berishadi. Aspakbozlik dorbozlar o'yini vaqtida ham ko'rsatiladi.

Aspakbozlik aslida kattalar repertuaridan bolalar repertuariga ko'chgan ritual o'yinlardan biridir. Ot o'yini ko'pincha yil boshida bahor mavsumida, dehqonchilik ishlarini boshlashdan oldin ritual o'ynalib kelingan. Bu dehqonchilik ishlariga samara keltiradi deb ishonilgan. Hatto kattalar bolalarga gildan, sopoldan yoki yog'ochdan "otcha" (aspak) o'yinchog'ini yasab berib, ot o'yinini ko'rsatib berishni so'rashgan. Yoxud bolalarning o'zlari endi kurtak yozgan toldan yoki tutdan xivich kesib olib, ot o'yinini ko'rsatishgan.

Ayrim o'yinlar kult sanalgan jonivorlar nomi bilan atalganligini kuzatish mumkin. Ularda kult sanaluvchi turli jonivorlar asosiy personaj sifatida talqin qilinadi. Bolalar mehr bilan unga taqlid qilib o'ynaydilar. Jumladan, "Ayiqlar", "Ayiqlarning bog'ida", "Ilonni dumidan ushlab ol", "Qushlar", "Oqsoq turna", "Tuya va bo'taloq" kabi o'yinlar bunga misol bo'ladi. Bu o'yinlarda bolalar kult sanaluvchi jonivorlar obrazini yaratishga harakat qiladilar. Ba'zi o'yinlarda ibtidoiy insonlarning animistik, gohida esa fetishistik qarashlari saqlanib qolgan. Masalan, cho'p, tosh kabilar vositasida o'ynaladigan o'yinlar bolalar o'rtasida bejiz keng tarqalmagan. Ularning vujudga kelishiga qadimgi insonlarning animistik tasavvurlari asos bo'lgan. "Besh tosh" nomli o'zbek bolalar o'yini hamda "Yetti tosh", "Uch tosh" kabi arman bolalar o'yini, "Sehrli tayoqcha" nomli rus bolalar o'yini, "Soyosh tayak" nomli boshqird, "K'ak'ma tayak" nomli dog'iston bolalar o'yinlari tosh va tayoq kabi predmetlarning g'ayritabiiy qudratga ega deb qaralishi asosida paydo bo'lgandir. Inson bu predmetlarning kuchli magik qudratga egaligiga ishongan. O'yinlar bolalar faoliyatida alohida o'rin tutuvchi, ko'p vazifali, etnopedagogik mohiyatga ega an'anaviy va ommaviy hodisalardan sanaladi. Ular xalq madaniyatining ajralmas bo'lagidir. Hamma xalqlarda ham o'yinlar shu xalqning bebaho madaniy boyligi hisoblanadi. Chunki ularda har bir xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, ruhiy olami, dunyoqarashi, axloqiy-estetik qarashlari o'z aksini topgan

bo'ladi.

O'yinlarda xalqning qiyofasi, o'tmishi, buguni va ertasi namoyon bo'ladi. O'yinsiz bolalar hayotini tasavvur etish qiyin. O'yinlarning har biri o'zicha mustaqil folklor asaridir. Uning ilk namunalari qadim zamonlarda yaratilgan bo'lib, asrlar davomida yosh avlod uchun o'z-o'zini tarbiyalash, mavjud shart-sharoitga ko'niktirish, chiniqtirish vazifasini o'tab kelgan.

O'yinlarda xalq turmush tajribasida sinalgan va millat ruhiga yo'g'rilgan jismoniy-tarbiyaviy va ma'naviy-axloqiy qarashlar o'z aksini topgan. Ular bolalarni halollikka, to'g'rilik va rostgo'ylikka, botirlikka, insonparvar va mehrli bo'lishga da'vat etadi. Negaki, aksariyat o'yinlar musobaqa shaklida bo'lib, ijobiy yakunlanish shartlaridan biri - sofdillikdir. O'yinlar bolalar hayotida ijtimoiy, fiziologik, estetik ahamiyat kasb etadi. O'yinlarning ijtimoiy ahamiyati shundan iboratki, bola bevosita tabiat va jamiyat qo'ynida, oila bag'rida yashaydi, o'ynaydi. Bola o'yin vositasida tabiat bilan yaqinlashadi. O'z o'yini uchun zarur bo'lgan predmetlarni: novdalar, barglar, loy, tosh va hokazolarni tabiatdan oladi. Ko'pgina o'yinlarni tabiatning so'lim go'shalarida: suv bo'yida, ariq labida, tog'larning etagida, g'orlar bo'yida, daraxtlar soyasida tashkil etadi. Yoki juda ko'p bolalar o'yin sifatida biror jonivorni boqib, uni parvarishlaydilar, yo biror o'simlikni ekib undiradilar. Bularning barchasidan bola olam-olam zavq oladi.

Bolalar kattalarning turmush tarzini, mehnatini kuzatib, jamiyat hayotini o'zlashtirib boradilar. Oila muhitida kechadigan turli voqeliklar: mehmonnavozlik, ro'zg'or ishlarini bajarish, tirikchilik uchun kurashish ishlari bolalarni befarq qoldirmaydi. Bolalar ularni bevosita kuzatib, nusxa ko'chiradilar-u, uni o'z o'yin faoliyatlarida taqlidan tasvirlaydilar. Shu tariqa bolalarning hayotga tayyorgarligi, jamiyat hayotiga ishtiroki ta'minlanib boradi. O'yinlarning fiziologik ahamiyati shundaki, u orqali bola o'z tabiiy-biologik, ma'naviy-jismoniy ehtiyojlarini qondira oladi. Chunki serharakatlilik bolaning sog'lom va to'g'ri unib-o'sishi uchun muhim bo'lgan asosiy omillardan biri ekanligi tibbiyot xodimlari tomonidan alohida qayd qilingan. O'yinlar bolalarning sog'lom, baquvvat, chiniqqan, epchil bo'lib o'sishlarida katta yordam beradi. O'yinlar vositasida bolalarning tana a'zolari (normal) iskart, kuchli bo'lib rivojlanib boradi.

Kalit so‘zlar: Axloq, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, badan tarbiya, jismoniy tarbiya, jadid, rivoyat, sahoba, ta‘lim.

Kirish: Bilamizki yurtimiz mustaqillikka erishgach, 1998- yil “Oila”, 2012-yil esa “Mustahkam oila yili” deb e‘lon qilindi. Bu albatta, jamiyat taraqqiyotining bosh bo‘g‘ini bo‘lmish Oila ekanligi, oiladagi muhit esa millat taraqqiyotining muhim tarkibiy asosi ekanligidan dalolatdir. Ushbu muhim jihatni esa Buxorolik ma‘rifatparvar, professor Abdurauf Fitrat o‘zining “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida birgina islomiy oila timsolida anglatgan.

Abdurauf Abdurahim o‘gli 1886-yil (hijriy 1304) Buxoro shahrida Abdurahim savdogar oilasida tug‘ilgan. Abdurauf Abdurahim o‘glining adabiy taxallusi Fitrat bo‘lib, bu so‘z “tug‘ma iste‘dod”, “insonga Alloh bergan yaratuvchilik qobiliyati” ma‘nolarini anglatadi. Zamondoshlarining guvohlik berishicha, talabalik yillari Mijmar (yoqimli hid taratguvchi cho‘g‘don) taxallusi bilan ham g‘azallar bitgan. Abdurauf Fitrat dastlab mahalla maktabida, so‘ngra Mir Arab madrasasida tahsil olgan.

Fitratning otasi savdogarchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan, ammo ziyoli shaxs edi. Shuningdek, u kishi dindor, o‘qimishli, olam kezishni, tijoratni yaxshi ko‘rganlar. Onasi Mustafibibi bo‘lib u kishini oilda Bibijon deb ham atashgan. Mustafibibi noziktab ayol bo‘lib,

farzandlar ta'lim-tarbiyasi bilan, asosan, shu kishi shug'ullangan. Chunki u kishi bolalarining savodli, bilimdon kishilar bo'lib yetishishlari uchun harakat qilgan. Aynan shu sabab ham Onasining ta'sirida Abduraufda she'r zavqi uyg'ongan va u bolaligidanoq badiiyat dunyosiga yaqinlashgan.

Fitrat qarashlarida islomiy oila mohiyatini anglash bo'lgani uchun oilada millatning qadri va sha'nini belgilovchi harakatlar, avvalo, er va xotinning iffat va diyonati bilan bog'liq ekanini hayotiy misollar bilan tushuntiradi. Er-xotinlikning birinchi sharti va oxir-oqibati farzand ekan, bu maqsadga erishish vositasi va sababi visoldir. Visol ishtiyoqi yoshlarda ertaroq tug'ilishiga qaram asdan «hakimlar erkaklarga 23 yoshdan oldin uylanmaslikni va qizlarga 18 yoshdan oldin turmushga chiqmaslikni maslahat beradilar». Abdurauf Fitrat ushbu «maslahat»ning ham fiziologik va genetik, gigiyenik va sihattalab maqsadlariga qaratilganini eslash barobarida oilaning sog'lom va barkam ol farzand yetishtirishdagi vazifalarini erinmay birm a-bir uqtirib o'tgan. Oilani janjal, fisq, xiyonat va, boringki, taloq kabi kushandalardan saqlab turuvchi vosita madoradir, ya'ni er-xotinning murosasidir. Tabiiyki, tartibli oilada nikoh, homiladorlik va uning nihoyasi farzanddir.

Bilamizki, Fitrat o'zining ba'zi asarlarida kishining har tomonlama kamol topishi uchun axloqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etishi haqida ta'kidlab o'tgan. Shu sabab u o'zining qarashlarida fikriy va jismoniy tarbiya bilan birga, axloqiy tarbiyaga ham juda katta e'tibor bilan qaradi. Shu o'rinda Abdurauf Fitrat xalqning baxtli yoki baxtsiz bo'lishi haqida gapirar ekan, buning asosiy sababi bolalikda oiladan olingan tarbiya deya quyidagi fikrni ilgari suradi: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq". Aynan shu fikr asosida Fitrat oilaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lga solish hamda go'zal insoniy fazilatlarni oiladan boshlab shakllantirish xususidagi g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" nomli asarni yaratdi. Ushbu asar 1914-yilda yaratilgan bo'lib, unda tanqidiy ruh va da'vat ruhi kuchlidir. Chunki o'sha davrdagi tuzum shunday ruhda yaratiladigan asarlarga ehtiyoj sezgan edi. Asar falsafiy-axloqiy turda yaratilgan bo'lib, 1915-yilda Mirzo Abduvohid Munzim tomonidan nashrga tayyorlangan, 1916-yilda esa Bokuda nashr etilgan. Adib ushbu asar orqali Turkiston aholisi uchun o'ziga xos qo'llanma yaratishni maqsad qilgan. Fitratning "Oila" asari ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida uylanish xususida so'z yuritilsa, uning ikkinchi qismida farzand tarbiyasi haqida so'z boradi.

"Oila" asarining birinchi qismi haqida so'z borar ekan, bunda Fitrat bo'lajak er-xotin birinchi navbatda nimalarga e'tibor berishi, uylanmoq zarur bo'lganda qanday xotinni tanlash lozimligi, er-xotinning qanday yashamog'i, homiladorlik davri va shunga o'xshash yana bir qancha masalalarga to'xtalib o'tgan va ularning har biriga ijobiy yondashgan holda fikr yuritgan. Xususan, asarning birinchi qismida uylanish haqida so'z borganda Fitrat erkak kishini fahsh ishlardan qaytarishga da'vat etib bir qancha rivoyatlarni keltirib o'tadi. Masalan, asarning uylanish va uylanmaslik xususida so'z yuritilgan qismida Abdulloh ibn Ma'sud (u kishi sahoba bo'lib, 652-yilda vafot etgan) rivoyat qiladi:

"Nabi (s.a.v.) marhamat qildilar: "Ey yoshlar, har birlaring nikohga kuchlaringiz yetsa uylaninglar, zero uylanish erkakni fahsh ishlardan saqlaydi va kimni nikohga kuchi yetmasa, u ro'za tutmog'i darkor, chunki ro'za shahvatni fahshga yaqinlashtirmaydi".

Shu bilan bir qatorda asarda keltirilishicha, bo‘lajak er-xotin turmush qurishdan oldin bir qancha masalalarga ahamiyat berishi kerak. Ya’ni uylanish uchun to‘rtta masalaga ahamiyat berish lozim: mol, nasab, husn va imon-u e’tiqod. Bunda birinchi navbatda uylanish orzusida bo‘lgan er-u xotinning mol (boylik)lari va nasablari taqriban bir xil bo‘lishi lozim. Aks holda, er bilan xotin bir-birlariga teng bo‘lmay, biri boy kalonzoda bo‘lsa, ikkinchi tomonni faqirlik va zoti pastlikda ayblab, hayotini mudom azobga qo‘yadi. Buning natijasi bo‘lsa, albatta, yaxshi bo‘lmaydi. Husn-u jamol masalasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, bu insonning tashqi ko‘rinishi demakdir. Bilamizki, har bir insonning tabiati har xil, husn va jamolning ham ma’lum chegarasi bo‘lmaydi. Masalan, bir insonning nazarida xunuk ko‘ringan surat boshqa biriga yoqishi, uning dilini zabt etishi mumkin. Shu sabablar asarda keltirilgan holda, qiz va yigit bir-birini fotihadan oldin ko‘rib, yoqtirishi lozim degan xulosaga kelinadi. Aks holda bunday nikoh salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Hattoki, asarda qiz va yigit bir-birini ko‘rib, yoqtirganidan keyin turmush qurishi maqsadga muvofiq ekanligi haqida bir qancha rivoyatlar keltirilgan. Masalan, Abdurauf Fitratning ushbu asarida keltirilishicha, Al-Mag‘irat binni Sha’ba (u kishi sahobalardan biri bo‘lib, 660-yilda vafot etgan) “Mishkot al-maloyih”da rivoyat qiladi: “Men bir ayolga sovchilarimni yubordim. Hazrat Payg‘ambar eshitib so‘radilar: “Sen uni ko‘rdingmi?”. Men: “Yo‘q, - deb javob berdim. Hazrat buyurdilar: “Uni ko‘rgin, orangizda bu muhabbatga sabab bo‘lajak”.

Bilamizki, hozirgi davrda farzand tarbiyasi juda jiddiy va e’tiborga loyiq masalalardan biri bo‘lib, ko‘pgina manbalarda unga alohida urg‘u berib o‘tiladi. Xususan, ham shoir, ham yozuvchi adib va ma’rifatparvar jadid deya atalmish Abdurauf Fitrat ham o‘zining “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” nomli asarining ikkinchi qismida shu borada fikr yuritgan. Va yuqoridagi ma’lumotlarda aytib o‘tilgani kabi asarning ikkinchi qismida farzand tarbiyasi haqida so‘z boradi. Asarning ikkinchi qismida farzand tarbiyasidan tashqari bolaga beriladigan badan tarbiyasi, aqliy va axloqiy tarbiya, qizlarning ilm olishi, yetimlarning haq-huquqlari haqida ham bir qancha so‘z borgan.

Fitrat oila tarbiyasi va jamiyatda ayollarning o‘rni, masalalariga ham alohida to‘xtaladi. Bola tarbiyasida onaning o‘rni juda kattaligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga tarbiyada oila, maktab va davlat hamkorligining zarurligini asoslaydi.

Asarda keltirilishicha, oilada er va xotin farzandli bo‘lguniga qadar faqat bir-biriga tirgak vazifasini bajaradi. Biroq bola ona rahmidan joy olgan zahoti, er va xotin bolaning nobud bo‘lishiga olib keladigan har qanday xatti-harakatlardan voz kechmog‘i kerakligi haqida aytib o‘tiladi.

Yuqorida keltirilgan fikrni tahlil qiladigan bo‘lsak, “bolaning nobud bo‘lishi” deganda, ko‘proq farzandning kelajakdagi tarbiyasi va uning natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar haqida so‘z yuritilyapti. Chunki hammaga ma’lumki, farzand tarbiyasi bu oddiy ish emas, albatta. Ota-ona hech qachon farzand tarbiyasida xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin emas. Sababi, mening fikrimcha, farzand tarbiyasida yo‘l qo‘yilgan xatolik, kelajak poydevorini tiklashda yo‘l qo‘yilgan xatolik! Ushbu fikrimning izohi sifatida asarda keltirilgan bir fikrni ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, unda shunday deyilgan:

“Oiladagi eng og‘ir vazifa bola tug‘ilganidan keyingi farzand tarbiyasidir. Farzand tarbiyasi aslida ikki kalimadan iborat. Shuning uchun ham nazaringizda juda mayda muammodek ko‘rinadi. Lekin dono odamlar biladilardiki, bani odamning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarning asosi ana shu ikki so‘z-“bola tarbiyasi”dan iborat birikmaga bog‘liq”.

Badan tarbiyasining o'ziga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, xalqimiz orasida "Sog'lom tanda sog'lom aql"- degan naql bor. Ya'ni bolaning aqliy jihatdan rivojlanishi uchun unda, avvalo, sog'lom tan bo'lmog'i va tanning sog'lom bo'lishi uchun bolaning nafaqat ona qornidan boshlab, balki chaqaloqlik davridan boshlab ham juda katta e'tibor qaratmoq lozim. Bilamizki, bizning xalqimiz bolani chaqaloqlik davrida beshikka bog'lab qo'yishadi. Va bunda bola ya'ni chaqaloq beshikka bog'lab qo'yilgan payti ko'p yig'lasa ba'zi bir shunday ayollar borki, darrov folbin-u yana qanaqadir duogo'y ayollar oldiga bolalarini olib borishadi. Lekin bu ham jamiyatdagi qusurlardan biri sanaladi. Chunki ayollar bilishmaydiki, bolani beshikda bo'lgan payti uni tinimsiz yig'idan to'xtatadigan narsa bu duoxon va folbin oldiga borish emasdir. Balkim, ayollarimizning bolani beshikka to'g'ri qo'yib, bog'lash qoidalarini bilmasliklari. Va bu haqida asarda shunday deyilgan:

"Balki yo'rgakni qattiq bog'lamasdan go'dak qo'llarini ochib qo'yish lozim. Beshiklari ham zindondan qolishmaydi. Beshikda bolaning qo'l-oyog'ini shunday bog'laymizki, bechora go'dak qimirlay olmaydi. So'ngra qo'lini qalin gavrapo'shlar bilan yopamiz.

Xulosa: jigarporamizni harakat, yorug'lik va havodan, ya'ni inson hayoti uchun zarur bo'lgan uchta asosiy narsadan mahrum qilamiz. Harakat badanga rohat beradi, hazm a'zolariga kuch bag'ishlaydi. Harakatsiz odamlar, ko'p o'tirib ishlaydigan shaxslar zaif bo'lib, hazm a'zolari ham yaxshi ishlamaydi. Ular kamqon bo'ladilar".

Shuningdek, Fitratning "Oila" asarida yetimning haq-huquqlari haqida so'z borar ekan, odamzoti biror bir yetimni asrab oladigan bo'lsa unga hech qachon yetim ekanligini eslatmasligi, ko'nglini o'ksitmasligi, balki unga o'zining farzandlari kabi muomalada bo'lishi lozimligi haqidagi bir qancha masalalar ko'zda tutilgan. Shuningdek, yetimning haqqiga xiyonat qilmaslik, unga ziyon keltiradigan ishlarni qilmaslik nazarda tutilib, asarda Qur'oni karimdagi quyidagi An'om surasi, 152-oyat keltirilgan:

"Yetim moliga yaqinlashmang. Agarda yetim uchun eng yaxshi vosita bo'lmasa".

Shunday qilib, ushbu asarni o'qigan holda bir to'xtamga keladigan bo'lsak, bu asar farzand tarbiyasi uchun har tomonlama foydalanishga arziydigan hamda mukammal manba bo'la oladi.

Xulosa: Fitratning "Oila" asari o'z davrining va bugungi kun insoniyatining ma'naviy dunyosini boyitishda katta rol o'ynaydi. Har qanday jamiyatda ham oila ijtimoiy taraqqiyot manbai va axloqiy tarbiya o'chog'i bo'lib kelgan. Shuning uchun ham insoniyat ulug'lari oilani nafaqat jamiyat, balki davlatchilik asoslarining qurilishida ham ilk maktab deb hisoblaganlar.

Mazkur asarni o'qib chiqar ekanmiz, biz uning qanchalik darajada nafaqat bolaning aqliy, axloqiy va shunga o'xshash boshqa tarbiya turlari uchun, balki kattalar ya'ni otalar, turmush qurishi kerak bo'lgan yosh yigit-u qizlarning hayoti va kelajagi uchun tarbiyaviy ahamiyatga molik ekanligini ko'rib o'tishimiz mumkin. Asardan yana bir shunday xulosa olishimiz mumkinki, har bir millatning tarixiy taraqqiyotini belgilab beruvchi ziyoli avlod aynan har tomonlama sog'lom ijtimoiy muhitga ega bo'lgan oilalarda tarbiya topadi, ulg'ayadi hamda millat oldidagi muhim burchini o'tay oladi.

Abdurauf Fitratning "Oila" asarining tarbiyaviy ahamiyati shunchalik muhimki, bu asar nafaqat o'sha davr ya'ni yozilish davridagi jamiyatdagi axloqsizlik, tarbiyasizlik va yana shu kabi boshqa salbiy illatlarning oldini olishga qaratilgan, balki, bugungi kunda ham

Oila qurish hamda farzand tarbiyasi uchun muhim manba bo'lishi hech shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurauf Fitratning "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" asari. -Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. 12-, 27-, 29-, 70-, 82-, 139-betlar.
2. H.Boltaboyev. "Jadidlar. Abdurauf Fitrat". -Toshkent: "Yoshlar" nashriyoti uyi, 2022. 3-5-betlar.
3. K.Hashimov, S.Nishonova. "Pedagogika tarixi". -Toshkent": Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. 223-bet.
4. https://sg.docworkspace.com/d/sINf5tJk7pP_2uQY
5. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Oila_\(asar\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Oila_(asar))
6. M. Imamova. Oilada bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi — T. "O'qituvchi". 1999
7. ABDURAUF FITRATNING "OILA" ASARIDAGI MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARI Saidova Parvina Mirzo qizi. Journal of Universal science research

ANIQ VA TABIIY FANLAR

GEOGRAFIYANI O'QITISH JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Shadiyeva Nigora, Buxoro davlat pedagogika instituti, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, Geografiya kafedrası dotsenti

nigrollashadieva-10@mail.ru

Malikova Go'zal, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi

guzalmalikova5@gmail.com

Annotatsiya: Geografiya yer yuzi tabiati, aholisi, xo'jaligini o'rganadigan fandır. Ushbu maqolada geografiyani o'qitish jarayonida zamonaviy texnikalardan foydalanish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interfaol metodlar haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Bundan tashqari maqolada ta'lim jarayonida qo'llaniladigan uslublar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnogiya, innovatsiya, geografiya, interfaol metodlar, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim, tarbiya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ГЕОГРАФИИ

Нигора Шадиева, Доцент кафедры географии

nigrollashadieva-10@mail.ru

Маликова Гузал - студентка географо-экономического факультета

guzalmalikova5@gmail.com

Аннотация: География – наука, изучающая природу, население и экономику Земли. В данной статье представлена краткая информация об использовании современных методик, применении инновационных педагогических технологий и интерактивных методов в процессе обучения географии. Кроме того, в статье описаны методы, используемые в образовательном процессе.

Ключевые слова: педагогические технологии, инновации, география, интерактивные методы, современные технологии, образование, воспитание.

USE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING GEOGRAPHY

Nigora Shadiyeva, Associate Professor of Geography Department, Faculty of exact and natural sciences

Abstract: Geography is a science that studies the nature, population, and economy of the earth. This article provides brief information about the use of modern techniques, the use of innovative pedagogical technologies, and interactive methods in the process of teaching geography. In addition, the article describes the methods used in the educational process.

Key words: pedagogical technology, innovation, geography, interactive methods, modern technologies, education, upbringing.

Geografiya tabiiy fan bo'lib, inson xo'jalik faoliyati bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. O'quvchilarga geografiya darslari o'tilayotganda faqat darslik bilan to'xtalib qolmasdan, xarita, atlas, amaliy ishlar bilan ham shug'ullaniladi. Bu fanda nazariya va amaliyot birgalikda olib boriladi. Ya'ni, dars davomida nazariy bilimlarni bilib olishadi, ekskursiyalar davomida esa olgan bilimlarni mustahkamlashadi. Hozirgi kunda o'quvchilari fanga qiziqtirish maqsadida turli xil innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablaridan biri ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, tayyorgalikning modul tizimidan foydalangan holda ta'lim oluvchilarni o'qitishni yuqori darajaga olib chiqish sanaladi. Avvalo texnologiya, pedagogik texnologiya va innovatsiya so'zlarini tahlil qilib olamiz. "Texnologiya" yunon tilidan olingan bo'lib, "techne"-maxorat, san'at, "logos"- tushuncha, o'rganish demakdir. Pedagogik texnologiya- ta'lim jarayonida texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonlarini samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Dastlab pedagogik texnologiya fanga 1872-yilda kirib keldi. Pedagogik texnologiya tushunchasiga har bir olim o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda turlicha ta'rif beradi. Ta'riflar ichida eng to'g'rirog'i YUNESKO tomonidan berilgan ta'rif hisoblanadi. Pedagogik texnologiya – ta'lim jarayonini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir. Innovatsiya atamasiga keladigan bo'lsak, inglizcha "innovation" so'zidan olingan bo'lib, "yangilik", "yangicha uslub" degan ma'nolarni anglatadi.

O'qituvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etib, dars davomida zamonaviy texnik vositalar (kompyuter, elektron doska, proyektr,...) dan foydalansa, hamda shu bilan birga interfaol metodlardan qo'llasa darsning mazmun mohiyati yanada oshadi. Geografiya ta'limida (boshqa fanlarda ham) innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini o'z

ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati mavzuni bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish, mustaqil topshiriqlarga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va to'g'ri baholashdan iborat. Peadagog har bir darsni oldindan rejalashtirib, tayyorlanib borishi lozim. Innovatsion texnologiyalar orqali o'qituvchi intellektual salohiyatga ega bo'lgan o'quvchilarni tayyorlaydi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov nutqlarida quyidagi fikrlarni aytganlar: "Bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr - intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa – bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrar.

Gegrafiya fani jarayonini qiziqarli va ko'rgazmali olib borishda karta va atlaslar bilan birgalikda fan va texnikaning zamonaviy yutuqlaridan foydalanish lozim. Dars davomida turli xil muammoli vaziyatlarni tashlab, o'quvchilarni shaxsiy yoki jamoaviy fikrlarni bilish mumkin. Tabiiy geografiya fanini oladigan bo'lsak, unda o'quvchilarni tabiat hodisalari, quyosh va oy tutilishlari, sayyoralar ko'rinishlari, kosmik hodisalar va boshqa jarayonlar haqida taassurotga ega bo'lishlari uchun ularga videoroliklar orqali tushuntirib berish mumkin. Ular faqat ma'lumot eshitganga nisbatan o'z ko'zlari bilan jarayonni ko'rsalarxotirada yaxshiroq muhrlanadi. Dars mavzularini tushuntirishda elektron doskalar orqali taqdimotlar bilan tushuntirilsa, o'quvchilar uchun foydali va manfaatli bo'ladi.

Geografiya darslarida turli xil interfaol usullardan foydalanish mumkin. Interfaol ("inter"-bu o'zaro, "ast"- harakat qilmoq)- o'zaro harakatlar qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishini anglatadi. Geografiya darslarida turli xil interaktiv usullardan foydalanish mumkin. Masalan, "Aqliy hujum" uslubi, "Geoklaster texnologiyasi", "Raqamlar piramidasi", "Kahoot testi", "Geo-7" metodi, "Georotatsiya metodi" va ko'plab usullardan foydalanish mumkin. "Kahoot testi" oladigan bo'lsak, unda o'quvchilarga kompyuter orqali tezkor testlarni berish mumkin. Bu ham o'quvchilarni topqirlikka chorlaydi hamda bilimlarni mustahkamlash uchun juda foydali usul hisoblanadi.

Dasturiy ta'lim vositalarning asosiy didaktik imkoniyatlari, bir nechta toifada qo'llanilishini bildiradi:

1. Multimediali o'rgatuvchi kurs sifatida, bir nechta namoyish animatsiyalar, video darslar, illustratsiyalar, o'rgatuvchi va interfaol laboratoriyalardan tarkib topgan.

2. Multimediali o'rgatuvchi interfaol laboratoriya sifatida, talabalarning laboratoriya ishi topshiriqlarini bajarishda faol bo'lishga, bevosita o'zi ishtirok etishga undaydi, buning natijasida dasturiy ta'lim vositalarini yaratish va qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladi.

3. O'rgatuvchi – nazorat qiluvchi sifatida, har bir mavzu bo'yicha o'rgatuvchi mashq qildiruvchi va nazorat testlari kiritilgan bo'lib, ular yordamida talaba qo'yilgan savollarning to'g'ri javobini o'rganadi, o'z bilim darajasini aniqlaydi. Bunda esa, to'g'ri javobni o'rganish orqali bilim olish samaradorligi oshadi.

DASTURIY TA'LIM VOSITALARNING TA'LIM JARAYONLARIGA JORIY ETILISHI

1	Bo'lajak o'qituvchilarga kasbiy bilimlarni egallashiga
2	O'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirilishiga
3	O'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga
4	Interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga
5	Sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga
6	Axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga
7	O'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, bo'lajak o'qituvchilarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirish

Bayon etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish, ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda bir qator jarayonlarni bajarish kerak: jumladan, ta'lim sohasini tanlash va zarur muammolarni tahlil qilib, bartaraf etishda dasturiy ta'lim vositalarini yaratish texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqazo etmoqda

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'limda ahamiyati juda yuqoridir. Ayniqsa, geografiyani o'qitish davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ilg'or geograflarni tayyorlashga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Jumaniyozova.S (2019). "Geografiya darslarida innovatsion metodlar." Tashkent: Fan va texnologiya.
2. Saidova.D (2022). "Geografiya darslarida o'yin metodlari." Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
3. Eryigitov.D.X. (2021). Ta'lim jarayonida Innovatsion Pedagogik texnologiyalardan qo'llash. "Murabbiy" ilmiy-ma'rifiy jurnali.
4. Botirbekova.G.A, Sharipova.S.B (2023). Ta'limda innovatsion texnologiyalarning mazmuni va mohiyati. Oriental Renaissance Innovative, educational, natural and social sciences.

BOSHLANG'ICH TA'LIM MATEMATIKA DARSLARIDA KASR TUSHUNCHASINI OSON TUSHUNTIRISH UCHUN VIZUAL YORDAMCHILAR KIRITISH

Ikromova Sevinch Elniyoz qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

sevinchikromova152@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim matematika darslarida kasr tushunchasini oson tushuntirishda vizual yordamchilarning rolini o'rganadi. Kasr tushunchasi matematik ta'limning asosiy qismlaridan biri bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun murakkab bo'lishi mumkin. Vizual yordamchilar, masalan, grafiklar, diagrammalar, rasmlar va boshqa ko'rgazmali materiallar orqali kasr tushunchasini yanada tushunarli va qulayroq qili ularni darslarda qanday qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi sh mumkin. Maqolada vizual yordamchilarning ta'siri va samaradorligi ko'rib chiqiladi hamda ularni darslarda qanday qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Tayanch so'zlar: vizual yordamchilar, kasr, grafik, diagramma, interaktiv vositalar, individual, raqamli chiziq, dars rejalar, rasmlar va modellar.

Kirish: Hozirgi kunda yurtboshimiz tomonidan ta'limga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, boshlang'ich ta'limni rivojlantirish uchun ham bir qator farmon va qarorlar imzolangan. Misol sifatida, 2022-yildagi "Ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonini keltirishimiz mumkin. Ushbu farmon ta'lim tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi va bu sohada yuzaga kelgan yangi talablarga muvofiq rivojlanish strategiyalarini belgilaydi. Ushbu farmonlar orqali boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish, sifatini oshirish va ta'lim muassasalarining infratuzilmasini yaxshilash kabi muhim vazifalar qo'yilgan. Prezidentning ushbu qarorlari, ta'lim sohasida yangi standartlar joriy etishni va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llashni maqsad qilib qo'yadi. Demak, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining bilimini mustahkamlash, ular uchun qiyin bo'lgan tushunchalarni qulay usulda yetkazib berish ham boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Buning uchun tushunchalarni o'rgatish davomida o'qituvchi turli zamonaviy vositalardan, tushunchalarni oson yetkazib beruvchi usullardan to'g'ri foydalana olishi lozim. Ushbu maqolada ham aynan shu haqida gap boradi. Ya'ni boshlang'ich ta'lim matematika darslarida kasr tushunchasini o'rganish bolalarga muhim matematik ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Ammo kasr tushunchasi bolalar uchun murakkab bo'lishi mumkin, chunki ularni raqamlar va miqdorlarni vizual ravishda taqqoslash va o'lchashni talab qiladi. Shu sababli, matematik ta'limda vizual yordamchilarning rolini tushunish va qo'llash juda muhimdir.

Vizual yordamchilar — bu grafiklar, diagrammalar, rasmlar va boshqa ko'rgazmali materiallar bo'lib, ular o'quvchilarga matematik tushunchalarni yanada aniqroq va tushunarliroq ko'rsatish imkonini beradi. Kasr tushunchasini o'rgatishda vizual yordamchilar orqali o'quvchilarga kasrlarni taqqoslash, qo'shish, ayirish va boshqa amallarni bajarishda yordam beriladi. Bunday yordamchilar matematik tushunchalarni ko'rgazmali tarzda ifodalash orqali bolalarning qiziqishini oshiradi va darslarni yanada qiziqarli qiladi.

Kasrlarni ta'riflashning ikkita asosiy usuli — doira va raqamli chiziq — kasrlarni

o'rganishdagi samaradorligini o'rgandi.

1-tajribada boshlang'ich maktab o'quvchilari kasr arifmetikasini o'rganishdi. Ular yoki vizual ko'rinish (doira shakli) yoki faqat standart raqamli notatsiya yordamida o'rgandilar. Natijalar shuni ko'rsatdiki, vizual ko'rinishning qo'shilishi kasr arifmetikasini o'rganishda qo'shimcha foyda bermagan.

2- tajribada esa, boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilari kasrlarni tanish, farqlash va tuzish bo'yicha sinovdan o'tkazildilar. Ular doira va raqamli chiziq ko'rinishlari bilan ishladilar. Natijalar raqamli chiziq savollariga nisbatan. doira shakli bo'yicha savollarda yuqori aniqlik ko'rsatdi

Umuman olganda, doira shakli kasrlarni tanish va farqlashda raqamli chiziqqa qaraganda yaxshi natija ko'rsatdi. Lekin kasr arifmetikasini o'rganishda, doira shakli qo'shilishining standart raqamli notatsiyaga nisbatan qo'shimcha afzalliklari bo'lmadi.¹

Ushbu maqolada, avvalo, kasr tushunchasini o'rgatishning qiyinchiliklari va vizual yordamchilarning bu qiyinchiliklarni qanday yengishiga oid nazariy va amaliy bilimlar tahlil qilinadi. Shuningdek, turli vizual yordamchilarning samaradorligi, ularning ta'siri va boshlang'ich ta'lim darslarida qanday qo'llash bo'yicha aniq misollar va tavsiyalar beriladi. Maqola maqsadi, boshlang'ich ta'limdagi matematika darslarida kasr tushunchasini osonroq va samaraliroq tushuntirish uchun vizual yordamchilardan foydalanishning ahamiyatini ko'rsatishdir.

1. Kasr tushunchasini o'rganishdagi qiyinchiliklar.

Kasr tushunchasi bolalar uchun murakkab bo'lishi mumkin, chunki ularning o'rganishida bir qancha qiyinchiliklar mavjud:

- abstrakt tushuncha: Kasrlar odatda raqamli qiymatlarni ko'rsatadi, ammo bolalar uchun ularni real hayotdagi holatlarda tasavvur qilish qiyin bo'lishi mumkin.
- vizual jihatdan mos kelmaydigan modellar: Ko'plab bolalar kasrlarni to'g'ri ko'rsatish va ularning qismlarini aniqlashda muammoga duch keladilar.
- matematik amallar: Kasrlarni qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish kabi matematik amallarni bajarishda ko'plab bolalar qiyinchiliklarga duch keladilar.

2. Vizual yordamchilarning ahamiyati.

Vizual yordamchilar kasr tushunchasini tushuntirishda katta ahamiyatga ega. Ular bolalarga matematik tushunchalarni ko'rgazmali tarzda taqdim etadi, bu esa tushunishni osonlashtiradi. Vizual yordamchilar quyidagi afzalliklarga ega:

Kognitiv yordam: Vizual yordamchilar bolalar uchun abstrakt tushunchalarni konkret shaklda ko'rsatadi, bu esa tushunishni osonlashtiradi.

Qiziqishni oshirish: Ko'rgazmali materiallar bolalarning darslarga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning diqqatini jalb qiladi.

Tajriba va amaliyot: Vizual yordamchilar yordamida bolalar matematik tushunchalarni tajriba va amaliyot orqali o'rganadilar, bu esa ularning bilimlarini mustahkamlaydi.

3. Vizual yordamchilar turlari:

3.1. Grafiklar va Diagrammalar Grafiklar va diagrammalar kasrlarni vizual ravishda ifodalashda keng qo'llaniladi. Misol uchun:

¹Jennifer A. Kaminski (jennifer.kaminski@wright.edu)

Pirog diagrammalari: Kasrlarni pirog diagrammasida ko'rsatish orqali bolalarga bir butunning qanday qismlarga bo'linishini tushuntirish mumkin.

Yarim-yarim grafiklar: Bu grafiklar yordamida kasrlarni taqqoslash va ularga nisbatan qanday qismga ega ekanligini ko'rsatish mumkin.

3.2. Rasm va modellar:

Rasmlar va modellar kasr tushunchasini tushuntirishda juda samarali bo'lishi mumkin:

Kasrlarning Qog'oz Modellar: Kasrlarning fizik modelini yaratish orqali bolalar kasrlarning qanday ishlashini o'rganadilar.

Real Hayotdan Misollar: Pishiriqlar, mevalar kabi real ob'ektlarni kasrlar bilan ajratib ko'rsatish bolalarga kasrlarni hayotiy misollarda ko'rsatadi.

3.3. Interaktiv Vositalar:

Interaktiv vositalar orqali kasr tushunchasini o'rgatish yanada samaraliroq bo'lishi mumkin:

Ta'limiy ilovalar: Maxsus ta'limiy dasturlar va ilovalar orqali bolalar kasrlarni interaktiv tarzda o'rganishlari mumkin.

O'yinlar va simulyatorlar: Matematik o'yinlar va simulyatorlar kasrlarni o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

4. Amaliy tavsiyalar

Kasr tushunchasini o'rgatishda vizual yordamchilardan samarali foydalanish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:


Dars rejalari: Vizual yordamchilarni dars rejasiga kiritish va darslarda muntazam foydalanish.

Individual yodashuv: Har bir bolaning ehtiyojlariga qarab, vizual yordamchilarni moslashtirish.

Amaliy mashqlar: O'quvchilarga kasrlarni amalda qo'llash uchun turli mashqlar va vazifalar berish.²

Boshlang'ich ta'lim matematika darslarida kasr tushunchasini oson tushuntirish uchun vizual yordamchilar sifatida quyidagi misollar rasm ko'rinishda ishlatilishi mumkin:


1. Pitsa yoki tort:



Bir pitsa yoki tortni teng qismlarga bo'lish. Masalan, bir pizzani 8 teng qismga bo'lib, 3 qismini rangi bilan ajratib ko'rsatish orqali, "Bu $\frac{3}{8}$ " degan tushunchani tushuntirish mumkin.


2. Shokoladli bar:

² "Mathematics for Elementary Teachers: A Conceptual Approach" - Gary L. Musser, Lynn E. Trimpe, and William F. Parker.



Shokoladli barni 4 teng qismga kesib, bir qismini ko'rsatib "Bu $\frac{1}{4}$ " degan misol orqali kasrni tushuntirish.

3. Qog'oz to'g'ri burchakli qism:



Qog'ozni 2 yoki 4 teng qismga bo'lib, bir qismni rang bilan ajratib, bu orqali kasrlarni ko'rsatish. Masalan, $\frac{1}{2}$ yoki $\frac{1}{4}$ qismini ajratib ko'rsatish.

4. Konstruktor yoki lego:



Lego bloklarini turli qismlarga bo'lib, har bir qismni o'lchab, kasrlarni vizual tarzda ifodalash. Masalan, 10 ta blokdan 3 ta blokni ajratib, bu $\frac{3}{10}$ degan tushunchani ko'rsatish.

Bu kabi vizual yordamchilar kasrlarning amaliy tushunchalarini tushunishda yordam beradi.

5. Xulosa

Kasr tushunchasini boshlang'ich ta'lim matematika darslarida tushuntirishda vizual yordamchilarning o'rni juda katta. Ular bolalarga matematik tushunchalarni ko'rgazmali tarzda taqdim etib, tushuni]shni osonlashtiradi va darslarni qiziqarli qiladi. Vizual yordamchilardan samarali foydalanish orqali o'qituvchilar bolalarga kasr tushunchasini o'rgatishda katta yordam berishi mumkin. Maqolada keltirilgan tavsiyalar va

misollar boshlang'ich ta'limda kasrlarni o'rgatishda amaliy yondashuvlarni yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Mathematics for Elementary Teachers: A Conceptual Approach" - Gary L. Musser, Lynn E. Trimpe, and William F. Parker
2. "Teaching Mathematics with Interactive Notebooks" - John J. SanGiovann
3. "Visualizing Mathematics: Making the Connections" - Mary Ann Huntley
4. "Math for the Elementary School Teacher" - Daniel J. Brahier
5. "Concrete to Abstract: Teaching Mathematics with Visuals" - Karen C. Fuson

KEYS STUDY METODIDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH

Gulomova Kubaro Buxoro davlat pedagogika Instituti Tabiiy fanlar kafedrası Geografiya va Iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: "KEYS STUDY METODIDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH" mavzusi o'qitish jarayonida samarali metodik usullarni qo'llashni maqsad qilgan. KEYS (Kognitiv, Emotsional, Yaratish, va Struktural) o'rgatish metodi, o'quvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlash, ularning kognitiv va emotsional qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu metod yordamida darslar nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda yaratuvchan fikrlash, hamda analitik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. KEYS metodini qo'llash, o'quvchilarning o'z bilimlarini mustahkamlash, dars jarayoniga faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: KEYS metod, o'quv jarayoni, kognitiv, emotsional rivojlanish, yaratuvchanlik, tanqidiy fikrlash, analitik fikrlash.

USING THE CASE STUDY METHOD IN THE TEACHING PROCESS

Gulomova Kubaro Bukhara state Pedagogical Institute, Department of natural science, 4th year student of Geography and Economic Basics

Abstract: The topic "Using the KEYS Method in Teaching" focuses on implementing effective teaching strategies in the educational process. The KEYS method (Cognitive, Emotional, Creative, and Structural learning) encourages active participation from students, helping to develop their cognitive and emotional abilities. This method aims not only at knowledge transmission but also at fostering creative thinking, as well as analytical and critical thinking skills. Applying the KEYS method helps students consolidate their knowledge and ensures their active engagement in the learning process.

Keywords: KEYS method, learning process, cognitive development, emotional development, creative thinking, critical thinking, analytical thinking.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА КЕЙСОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Гуломова Кубаро Бухарский государственный педагогический институт, факультет естественных наук, студентка 4 курса географии и экономических основ

Аннотация: Тема "Использование метода KEYS в процессе преподавания" направлена на внедрение эффективных методик в учебный процесс. Метод KEYS (Когнитивное, Эмоциональное, Творческое и Структурное обучение) способствует активному участию учащихся в учебном процессе, помогает развивать их когнитивные и эмоциональные способности. Этот метод направлен не только на передачу знаний, но и на развитие творческого мышления, а также аналитических и

критических навыков у учащихся. Применение метода KEYS способствует укреплению знаний учеников и активному их вовлечению в учебный процесс.

Ключевые слова: Метод KEYS, учебный процесс, когнитивное развитие, эмоциональное развитие, творческое мышление, критическое мышление, аналитическое мышление.

Keys tadqiqoti murakkab narsani tushunish uchun ishlatiladigan batafsil hikoyaga o'xshaydi. Keys study- bu biznes, shaxs yoki hodisa kabi biror narsaning bir misoliga chuqur qarashdir.

Biznes, sog'liqni saqlash, psixologiya va ta'lim kabi sohalarda murakkab masalalar haqida batafsil ma'lumot olish uchun amaliy tadqiqotlar keng qo'llaniladi. Keng ma'lumotlar tendentsiyalarini tahlil qilish o'rniga, vaziyatni o'rganish muayyan mavzuga - bu shaxs, hodisa, tashkilot yoki jarayonga qaratilgan. Muayyan ishni chuqur o'rganib, tadqiqotchilar noyob tafsilotlar va naqshlarni ochib, amaliy tadqiqotlarni bebaho tadqiqot vositasiga aylantirishlari mumkin.

Katta guruhlar bo'yicha topilmalarni umumlashtirishga qaratilgan tadqiqotning boshqa shakllaridan farqli o'laroq, amaliy tadqiqotlar bitta misolning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Keys tadqiqotining maqsadi - shaxs, guruh, tashkilot, hodisa yoki jarayon bo'lishi mumkin bo'lgan muayyan mavzuni batafsil va chuqur tushunishdir. Quyida amaliy tadqiqotlar nima uchun ishlatishingiz mumkinligi berilgan:

1. Murakkab masalalarni o'rganing: Keys tadqiqotlari tadqiqotchilarga murakkab vaziyatlarni batafsil o'rganish imkonini beradi va ularga muammo yoki hodisa atrofida to'liq kontekstni tushunishga yordam beradi.

2. Insights yaratish: Bir holatga chuqur e'tibor qaratish orqali tadqiqotchilar kengroq tadqiqotlar e'tibordan chetda qolishi mumkin bo'lgan noyob tushunchalar, naqshlar yoki omillarni aniqlashlari mumkin.

3. Haqiqiy hayotda test nazariyalari: Keys tadqiqotlari tadqiqotchilarga nazariyalarni muayyan sharoitlarda yoki vaziyatlarda bardosh berishini bilish uchun real dunyo misollarida qo'llash imkonini beradi.

4. Kelajakdagi tadqiqotlar haqida ma'lumot bering: Keys tadqiqoti natijalari kattaroq tadqiqotlar uchun tadqiqot savollarini tekshirish yoki takomillashtirish uchun yangi sohalarni ajratib ko'rsatishi mumkin.

5. Amaliy yechimlarni taqdim eting: Biznes, sog'liqni saqlash yoki ta'lim kabi sohalarda amaliy tadqiqotlar boshqalar shunga o'xshash vaziyatlarda qo'llashi mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar yoki strategiyalarni taklif qilishi mumkin.

6. Nazariyalarni yaratish yoki takomillashtirish: Keys tadqiqotlari muayyan misoldan dalillar keltirish orqali mavjud nazariyalarni ishlab chiqish yoki o'zgartirishga yordam beradi.

Case Study jarayoni-Keys tadqiqotini o'tkazish bir necha asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi. Vaziyatni tanlang: tadqiqot savoliga tegishli bo'lgan aniq misolni tanlash juda

muhimdir. Misol uchun, etakchilikni o'rganayotgan tadqiqotchi taniqli rahbar yoki boshqaruv amaliyoti bilan tanilgan tashkilotni tanlashi mumkin

Ma'lumot to'plash: Tadqiqotchilar intervyular, kuzatishlar, so'rovlar va hujjatlarni ko'rib chiqish kabi turli usullar orqali ma'lumot to'plashadi. Bir nechta manbalar ishning to'liq ko'rinishini taqdim etadi.

Ma'lumotlarni tahlil qiling: ma'lumotlar naqshlar, munosabatlar va tushunchalarni aniqlash uchun sinchkovlik bilan tekshiriladi. Ushbu bosqich aloqalarni o'rnatish uchun ishni o'rnatilgan nazariyalar yoki modellar bilan taqqoslashni o'z ichiga olishi mumkin. Hozirgi xulosalar: Yakuniy qadam topilmalar haqida xabar berishdir, ko'pincha ishning dolzarbligini, asosiy fikrlarini va kengroq oqibatlarini tushuntiruvchi hikoyani o'z ichiga oladi.

KEYS TADQIQOTLARINING AHAMIYATI

Keys tadqiqotlari har doim ham so'rovlar yoki eksperimentlardan olinmaydigan noyob istiqbolni taklif qiladi. Haqiqiy misollarga e'tibor qaratish orqali tadqiqotchilar amaliy sohalarda ayniqsa foydali bo'lgan amaliy tushunchalarga ega bo'ladilar. Masalan, biznesda kompaniyaning muvaffaqiyatini o'rganish boshqalar uchun samarali strategiyalarni ochib berishi mumkin. Sog'liqni saqlash sohasida bemorning holatini tekshirish diagnostika va davolash usullarini yaxshilashga yordam beradi. Keys tadqiqotlari natijalari ko'pincha yangi nazariyalarni yaratish yoki muayyan sohalarda amaliyotni yaxshilash uchun ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, keys tadqiqotining asosiy maqsadi murakkab masalalarning "qanday qilib" va "nima uchun" ekanligini tushunish, o'xshash holatlarda keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan qimmatli fikrlarni taklif qilishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Robert.K.-, "Case study research; Design and Methods"
2. William E.-Case study o'quvqo'llanma. Mavzularni qanday o'qish, muhokama qilish va ishonchli tarzda yozish
3. "Qualitative Research Methods for the Social Sciences" by Bruce L.
4. D.M.Yo'ldashev-Talimning keys study metodi.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA

Kurbonova D. S. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik omillari.....	3
Болтаев А. С. Лидерство менеджмента в ходе работы над инновационными проектами.....	13
Nurulloyev L. L. Xorijiy harbiy oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislarni kasbiy tayyorlash sifatini ta’minlash bo‘yicha pedagogik tajriba.....	18
Xoliqov I. Bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish.....	28
Тиллоев У. У. Бўлажак ўқитувчиларда касбий - педагогик компетенцияларни шакллантириш асослари.....	33
Хайдаров М. Ў. Ўқув жараёнига аралаш таълим технологияларини жорий этиш.....	38
Ubaydulloyeva Sh. O`. Oilaning hayotiy tarzi va ziddiyatlari.....	43
Umarova S. M. , Nosirova Y. O`. Jadid ma’rifatparvarlari ilmiy-pedagogik merosining o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini boyitishdagi ahamiyati	46
Xamdanova G. X., Abdullayeva N. T. O‘quv jarayonida “flipped classroom” (teskasi sinf) texnologiyasining samaradorligi.....	51
FILOLOGIYA FANLARI	
Safarova N. O., O‘ktamova S. A. O‘zbek xalq o‘yinlarining boy ma’naviy merosimiz sifatida o‘ziga xosligi.....	56
Sharofova R. U. Adabiy asarlarda somatik iboralarni tarjima qilish muammolari.....	61
Shamsiddinova G. Interpretation of the somatism "head" in english and uzbek proverbs...	64
IJTIMOY FANLAR	
Makhmudova Kh. M. ..Timeless treasures: touring and exploring the historical monuments of Bukhara	67

Мустафоев Ж. Т Функционирование русского языка как средства международного общения.....	74
Temirov R. I., Maxmudova G. M. “Fitratning “oila” asarida tarbiya masalalari”	79
ANIQ VA TABIIY FANLAR	
Shadiyeva N. , Malikova G Geografiyani o‘qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish	84
Ikromova S. E. Boshlang‘ich ta’lim matematika darslarida kasr tushunchasini oson tushuntirish uchun vizual yordamchilar kiritish.....	88
Gulomova K. Keys study metodidan dars jarayonida foydalanish.....	93



QAYDLAR UCHUN



QAYDLAR UCHUN

No. 3

BOSH MUHARIR

Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, p.f.d. (DSc), professor
MA'MUROV BAHODIR BAXSHULLAYEVICH

Muharrir:

Texnik muharrir:

Sahifalovchi:

Dizayner:

A. Kalandarov

G. Samiyeva

Z. Elmurotova

M. Arslonov



Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original – maketdan bosishga ruxsat etildi: 01.07.2024. Bichimi: 60/84 ¹/₁₆ «Palatino Linotype» garn. Ofset bosma usulida. Ofset bosma qogʻosi. Bosma tabogʻi 6,75 Adadi 50. Buyurtma № 124. Bahosi kelishilgan holda.



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko' chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46